


H.I.Boyev

SUG'URTALASH




13-72
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI

X.I.BOYEV

SUG'URTALASH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiglashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining
iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.*



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti
Toshkent — 2005

Ushbu o'quv qo'llanmada sug'urtaning kelib chiqishi, iqtisodiy mohiyati, respublikada sug'urta ishini rivojlantirish bosqichlari, davlatning sug'urta siyosati hukumatning qarorlari asosida bayon etilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada sug'urta ishi tasnifi, sug'urta javobgarligi, sug'urta ishida marketing va reklama, sug'urta shartnomalari, qayta sug'urtalash, sug'urta shakllari, bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaning tutgan o'rni, xorij tajribasi va boshqa dolzarb muammolar tahlil etilgan. Mazkur o'quv qo'llanma 5340400 «Xalqaro biznes» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan kollej, litsey o'quvchilari, talabalar, magistrantlar, aspirantlar va izlanuvchilarga mo'ljallangan.

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qaroriga muvofiq Toshkent Moliya institutining «Soliq va sug'urta» kafedrasidan 2003-yilda ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturlari asosida tayyorlandi.

Mas'ul muharrir:

G.N.Axunova,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi malaka oshirish instituti direktori, iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

X.Shennayev,
Toshkent Moliya instituti «Soliq va sug'urta» kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
M.Alimardonov,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti «Moliya va soliqlar» kafedrasini professori, iqtisod fanlari doktori.

Ekspertlar:

O.Abduvaxobov,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti ichki nazorat monitoring bo'limi boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.Ya.Japporov,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti «Sug'urta ishi, qimmatli qog'ozlar bozori» kafedrasini katta o'qituvchisi.

В учебном пособии «Страхования» автор рассмотрел возникновение страхования, экономическую сущность страхования и основные этапы развития страхования в республике и управление на основе решения Правительства.

В учебном пособии автор рассмотрел страховую ответственность, классификация страхования, страхового маркетинга, страховые договора, перестрахования, формы страхования, роль страхования в рыночной экономике, зарубежный опыт в страхования и другие актуальные проблемы страхования.

Настоящее учебное пособия рассчитано для студентов высшей учебной заведения, колледжей, лицей и для специалистов работающих в области страхования.

Ответственный

редактор:

Г.Н. Ахунова,
Директор института повышения
квалификации при ТГЭУ
доктор экономических наук, профессор

Рецензенты:

М. Алимардонов,
Зав. кафедры «Налог и страхования» ТФИ,
доктор экономических наук профессор;
Х. Шеннаев,
Профессор кафедры «Финанс и налоги»
кандидат экономических наук

Эксперты:

О. Абдувахобов,
Начальник отдела внутреннего
контроля и мониторинга ТГЭУ,
кандидат экономических наук, доцент;
Ш.Я. Жаппоров,
Старший преподаватель кафедры «Страхования,
рынок ценных бумаг».

The present book is devoted to the origin of insurance, its historical significance and the development stages of insurance, Republican insurance policy has been composed under the decisions of government.

The book analyses the insurance classifications, insurance responsibility, marketing and advertising in insurance, insurance contracts, reinsurance, insurance forms, its status in market economy conditions, foreign experience and other actual problems of our Republic.

The book can be widely used by students of Higher Education Universities, Colleges, lyceums and other interested specialists-readers.

Editor:

G.N.Akhunova

chief doctor of economics, prof.

Reviewers:

H. Shinnayev,

candidate of economics;

M. Alimardanov,

doctor of economics, prof.

Experts:

O. Abduvahabov,

The director chief of department of domestic control and monitoring of TSEU,

candidate of economic scionel, lecturer.

KIRISH

I. Fanni o'rganishning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyotiga ulanganligi mamlakatimizda iqtisodiyotni liberilzatsiyalashtirish va jamiyatni demokratlashtirish, yangilash davlatimizning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholining turmush darajasini yuksaltirish uchun hukumatimiz chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib bormoqda. Iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan sug'urtalash tizimi mamlakatda takror ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishini ta'minlab beradigan soha hisoblanadi.

O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi avvalo ularni sug'urtalash orqali kafolatlash tufayli dunyoning turli mamlakatlaridan iqtisodiyotimizga ko'p miqdorda kapital mamblag'lari kirib kelayotganligi real hayotga aylandi. Shuning uchun sug'urtalashni o'rganish, bu fanni o'qitish hozirgi milliy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda.

Jahon hamjihatligi bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirayotganligimiz uchun har bir iqtisodiy munosabatlarda sug'urtaga bo'lgan talabning o'sib borayotganligi inson omiliga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda. Demak, sug'urta inson faoliyati, uning mol-mulki va hayotini moddiy farovonligini kafolatlab beradigan omillardan biriga aylanib borayotganligi hayotiy zaruriyatdir.

II. Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili. Ushbu «sug'urtalash» fanidan tayyorlangan ma'ruzalar matnida Prezident I. Karimov asarlari va sug'urtaga oid Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda «sug'urta to'g'risida»gi Qonun bilan birga O'zbekiston olimlarining asarlari va Rossiya Federatsiyasi olimlarining bir qancha asarlari kiritilgan.

Jumladan Rossiyalik olim V.V. Shaxovning «Страхования» darsligi tahlil etib chiqilgan. Unda sug'urtalashning bozor

iqtisodiyotidagi roli, sug'urta bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, sug'urta javobgarligi, mulkiy va shaxsiy sug'urta, sug'urta tavakkalchiliklari, sug'urta vositachilari, xorijiy mamlakatlar sug'urtasi o'rganib chiqildi.

Bundan tashqari xorijlik olim K.E.Turbina «Тенденции развития мирового рынка страхования» kitobi ham tahlil etilib, undagi sug'urtalashni jahon miqyosida globallashib borayotganligi jahon sug'urta bozorida investitsiyani sug'urtalashni rivojlanib borayotganligi tahlil etilgan. Ammo bu asarlarda O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyat va sharoitlar hisobga olinmagan. Bulardan umumiy yo'nalish va nazariy takliflarni qabul etish maqsadga muvofiqdir.

Akademik S.S. G'ulomov va X.I. Boyev tomonidan nashr etilgan qator o'quv qo'llanmalari «Sug'urta ishi», «Sug'urta bozori», «Xorijiy mamlakatlar sug'urta tajribasidan O'zbekistonda foydalanish», «Aholini ijtimoiy himoyalashda ijtimoiy sug'urta», «Valyuta, moliya, kredit, bank va sug'urta muammosi» kabi qo'llanmalar tahlil qilinib, ulardagi sug'urtalashning nazariy va amaliy tomonlari sug'urta kompaniyalarining faoliyati mamlakatimizdagi sug'urta tizimini o'ziga xosligi va uni rivojlantirish istiqbollari to'g'risidagi qarashlarga alohida e'tibor berilganligi diqqatga sazovordir.

Olimlarimiz G.N. Axunova va A.T. Shermuhamedov tomonidan nashr etilgan «Transport sug'urtasi», M.I. Yuldoshev tomonidan e'lon qilingan «Sug'urta huquqi» o'quv qo'llanmalari va boshqa sug'urtalashga oid kitoblar ham tahlil qilinib, bugungi iqtisodimiz uchun zarur bo'lgan sug'urtalashga xizmat qiladigan fikrlarni inobatga olib, sug'urtalash bo'yicha o'zida sug'urtaning mohiyatini, xususiyatlarini, davlatning sug'urta siyosatini O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish bosqichlarini, sug'urtaning turlarini ko'rsatib beradigan ushbu o'quv qo'llanmasi yaratildi.

I BOB

SUG'URTANING KELIB CHIQISH TARIXI

1.1. Sug'urtaning vujudga kelishi

Sug'urtaning kelib chiqish tarixi uzoq davrni o'z ichiga oladi. Uning dastlabki kurtaklari qadimgi Rim saltanatining hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Dastlab rohiblar tomonidan hamkorlik jamiyatlarining tuzilganligi va bu jamiyat a'zolari diniy marosimlarni o'tkazish uchun «Dafn kassasi»ga o'zaro badallar (pay) to'lash asosida pul to'plaganlar. Agar jamiyatning birorta a'zosi vafot etsa, to'plangan pul uning marosimiga berilar edi. Vaqt o'tishi bilan bu to'plangan pul boquvchisiz qolgan oila a'zolariga ham beriladigan bo'ldi. Shu davrlardayoq shaxsiy sug'urta turlari shakllana boshlagan edi.

Rimda vujudga kelgan sug'urta jamiyatlari davr o'tishi bilan Nemis xalqining orasida shu hududning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, bir xil bo'lsa ham shaklan o'zgargan holda qabul qilingan. Germaniyada tashkil bo'lgan savdogarlar gildiyasi (uyushma), keyinchalik sug'urta hamdo'stlik jamiyati ko'rinishida shakllandi va rivoj topdi. Sug'urta muassasalarining o'rta asrlarda paydo bo'lganligi o'z navbatida, shu davrlarda yuklarni dengiz orqali yetkazib berish kafolati bilan bog'liq edi. Savdo-sotiqning rivojlanib borishi, sug'urta tizimining turli mamlakatlarda rivoj topishiga, jamiyatning turli sohalarida sug'urta munosabatlari shakllanishi alohida ahamiyat kasb eta boshlagan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, dastlabki sug'urta uyushmalari XII - asrda Islandiyada tashkil etilgan. Bu uyushmalar orqali shu mamlakatda yashovchi xalqlar o'z mol-mulklarini yong'indan, dehqonlar esa chorva mollarini nobud bo'lishdan saqlash uchun sug'urtalash maqsadida birlashganlar. XIII asrda Yevropada dengizda tashiladigan yuklarni sug'urtalash rivojlanib, XV asrga kelib dengiz yo'llari sug'urtasi xususiy aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilgan. Sug'urtalash ishida

yuktashuvchi yuklarni turkumlash va sug'urtalanishini nazorat qilishga Angliya va Germaniya mamlakatlarida ham alohida e'tibor berila boshlangan. Sug'urta to'grisidagi dastlabki qonunlar o'sha davrlarda Yevropa mamlakatlarida qabul qilingan edi. 1446 yili Golshteyin sug'urta jamiyatlari London hamda Parijda tashkil etildi. Bu jamiyat aktiv faoliyatlar yuritgani bois jahonga mashxur bo'ldi. Yevropa mamlakatlari bo'lgan Germaniya va Shvetsariyada ham qishloq xo'jaligi sohasida chorva mollarini va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta jamiyatlari tashkil etildi.

Ayniqsa XVII asrga kelib sug'urta aksiyadorlik kompaniyalari soni ko'payib faol ish yurita boshladilar. Jumladan Gollandiya-Ost-Indiya kompaniyasiga 1602-yili asos solindi, 1613 yilda Angliya - Ost-Indiya kompaniyasi tashkil etildi. 1726-yili Kopengagen, 1734 yilda Stokgolm, 1745-yili Berlin, 1720-yili London xissadorlik sug'urta jamiyatlari barpo etildi. XVIII asrga kelib Yevropa mamlakatlarida sug'urta turlaridan dengiz sug'urtasi, chorva mollarini nobud bo'lishidan sug'urtalash, yong'indan sug'urtalash jamiyatlari ish yurita boshladi. Yevropa mamlakatlarida sug'urta jamiyatlarining faoliyatidan uning azolari foyda olayotganligini ko'rgan boshqa fuqarolar ham milliy sug'urta jamiyatlariga a'zo bo'la boshladilar. Keyinchalik Angliya, Germaniya, Shotlandiya, Fransiya kabi mamlakatlarda ham sug'urtalash ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi. XX asrga kelib iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan aholini sug'urtalash tizimi vujudga keltirildi. XX asrning boshlarida Yevropada ishsizlik o'sib borayotganligini hisobga olib, Angliya va boshqa mamlakatlarda ishsizlikdan sug'urtalash davlat yo'li bilan majburan tashkil etildi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tizimi asta sekin jamiyat hayotining barcha jabxalariga kirib bordi, endilikda hamma narsani sug'urtalash mumkin bo'lib qoldi.

Axoli o'rtasida sug'urta haqidagi bilimlar keng miqyosda targ'ibot qilinganligi tufayli, har bir fuqaro sug'urta kompaniyalari faoliyatidan xabardor bo'lib, sug'urta kompaniyalarining foydalilik

faoliyatidan bahramand bo'lganliklari natijasida sug'urtalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Sug'urta faoliyati baynalminallashib borib, xalqlar orasidagi munosabatlarning rivojlanishiga katta xissa qo'shmoqda.

1.2. Sug'urtaning huquqiy asoslari

Sug'urta bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi tarkibiy qismi va ishlab chiqarish munosabatlarining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

Sug'urta ko'p ukladli xo'jaliklarning har birini sug'urtalashda, ularning mol-mulklarini saqlashda alohida ahamiyatga egadir. Sug'urta ijtimoiy ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishini ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilganligi tufayli mamlakatimizda sug'urtaning huquqiy asoslarini yaratishda davlat tashabbuskor bo'ldi. Natijada respublikamizda 1993-yil «Sug'urta to'g'risida»gi birinchi qonun qabul qilindi va bu qonunga binoan mamlakatimizda sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Sug'urta bozori shakllandi. Xorijiy mamlakatlarning investitsiyalari O'zbekistonga kirib kela boshladi. Respublikamizda rivojlangan dunyo mamlakatlari darajasidagi sug'urtalash bo'yicha jarayonlar amalga oshdi. 2002 yil aprelda O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda sug'urta faoliyati to'g'risida, sug'urta sohalari va klasslari, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi va boshqa muhim yangiliklar bu qonunda o'z aksini topdi. 2002 yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 413-sonli qarori qabul qilindi. Ayni paytda sug'urta tizimini davlatimiz rivojlantirish uchun, uning huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida alohida g'amxo'rlik qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni

mamlakatimizdagi sug'urta kompaniyalarini rivojlantirishni huquqiy asosini ta'minlab berdi. Bu farmonda sug'urta kompaniyalarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar 3 yil muddatga sug'urta tashkilotlari foyda solig'i to'lashdan ozod qilindi. Sug'urta kompaniyalarining mablag'lari ularning moddiy texnika bazasini rivojlantirishga mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shaxobchalarini tashkil etishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga va milliy kadrlarni xorijiy mamlakatlarda o'qitish malakasini oshirishga sarflanishi ko'rsatib o'tildi. Natijada xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda sug'urtaning qonunchilik bazasi takomillashib, sug'urtaning yangi turlari tashkil etilmoqda va mamlakatda turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarining faoliyat ko'rsatishi uchun har tomonlama huquqiy asoslar yaratildi va normativ hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatda majburiy sug'urtalash doirasi qisqarib, kelajakda ixtiyoriy sug'urtalash tizimi rivojlanib borishi uchun huquqiy asoslar barpo etildi.

Sug'urta ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismi hisoblanib sug'urta turlari daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash asosida shaklanadi va ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun sug'urtalanuvchilarga sug'urta qoplamalari to'lanadi.

Sug'urta huquqi sug'urta haqidagi barcha qonunlar va me'yoriy hujjatlarni o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston Respublikasining 1998-yilda qabul qilingan Fuqarolik kodeksining 52-bobi mamlakatda sug'urta tizimini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hamma qonun-qoidalar ko'rsatib berilgan. Bunda sug'urtaning eng muhim huquqiy masalalari sug'urta shartnomalarini tuzish, ikki tomonlama sug'urtalash, hamkorlik sug'urtasi, qayta sug'urtalash, sug'urtalashni amalga oshirishda tomonlarning javobgarligi va boshqalar fuqarolik kodeksi doirasida tushuntirib berilgan. Sug'urta jamiyatlarining ko'rsatadigan yordamidan faqat Mulk egalari emas, balki jamiyat a'zolari ham

manfaatdordirlar, ya'ni qo'shimcha daromadga ega bo'ladilar. Tashqaridan yetkaziladigan zararlar insonning sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi, hatto vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishga yoki ishga yaroqsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Zarar ko'rgan kishiga ana shu davrdagi tirikchiligi uchun zarur bo'lgan mablag'ni sug'urta kompaniyalari to'laydi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning o'z hayotlarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va sug'urta badallarini muntazam to'lab turishini taqazo etadi. Sug'urta insonlarning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq ekanligi yuqorida keltirilgan misollardan ma'lum. Shu asosida sug'urtaga tarif berish va sug'urtaning o'ziga xos belgilarini ko'rsatib o'tish obyektiv zarurat hisoblanadi. Sug'urta - maxsus fondlarni tashkil etishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, undan turli hodisalar, voqealar yuz berganda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun foydalaniladi. Sug'urta munosabatlari ikki tomon, sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida yuzaga keladi. U o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. Sug'urta maqsadli xususiyatga ega bo'lib, oldindan belgilangan shartnomalarga ko'ra u yoki bu hodisalar yuz berganda to'lanadi.

2. Sug'urta ehtimolli xususiyatga ega, chunki u yoki bu hodisaning qachon ro'y berishi hamda keltiradigan zarar miqyosi va qaysi sug'urtalanuvchiga tegishli bo'lishi oldindan noma'lumdur.

3. Sug'urta mablag'lari qaytarilish xususiyatiga ega bo'lib, sug'urta fondining mablag'lari ayrim shaxslarga to'lash uchun emas, balki sug'urtalanuvchilarga to'lash uchun mo'ljallangan.

1.3. Sug'urta atamalarining mazmuni

Sug'urtada mujassamlashadigan ko'p qirrali munosabatlar mazmuni so'z va atamalar (terminlar) orqali ifoda qilinadi. Atamalar yordami bilan sug'urta munosabatlarini uyushtiruvchilarning huquq va vazifalari belgilanadi, ko'p qirrali sug'urta faoliyati tashkil qilinadi. Sug'urta faoliyatida ishtirok etadigan atamalar o'rta hisobda 400 dan ortiq bo'lib, ularning

soni asta-sekin ortib bormoqda. Sug'urta atamalarini 4 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Sug'urtaning eng umumiy- tashkiliy qirralari va shartlarini ifodalovchi atamalar.

2. Sug'urta fondini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan atamalar.

3. Sug'urta fondining sarflanishi bilan bog'liq atamalar.

4. Xalqaro sug'urta atamalari.

1960-yilda Lyuksemburg shahrida o'tkazilgan «huquq kongrisida» sug'urta atamasining ma'nosi keng muhokama qilingan. Unda sug'urta atamasining ildizini «bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» tamoilidan axtarib, jamoa bo'lib sug'urta fondi tashkil qilish, zararlar o'rnini qoplash alohida muhtojlarga yordam ko'rsatishni ko'zlab ko'rilgan zarar hamma sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi zikr etilgan. Sug'urta faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq atamalar sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urta obyekt, sug'urta subyektlari, sug'urta himoyasi, sug'urta manfaatdorligi, sug'urta javobgarligi, qayta sug'urtalash, sug'urta vositachilari, sug'urta guvohnomasi, sug'urta qoplamasini oluvchi va h.k.

Sug'urta fondini shakllanish jarayoni bilan bog'liq atamalarga: sug'urtaviy baholash, sug'urta ta'minoti, sug'urta summasi, sug'urta tarifi, sug'urta muddati, sug'urta yoshi, sug'urta boqimandasi, sug'urta to'lovi kabilar kiradi.

O'z navbatida sug'urta fondini sarflash bilan bog'liq atamalarga quyidagilarni kiritish mumkin: sug'urta xavf-xatari, sug'urta hodisasi, sug'urta dalolatnomasi, sug'urta zarari, sug'urta rentasi, sug'urta qoplamasi kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xalqaro sug'urta atamalariga quyidagilarni kiritish mumkin: sug'urta bozori, sug'urta portfeli, sug'urta bonusi, sug'urta franshizasi, sug'urta auditori, sug'urta brokeri, kargo sug'urtasi, kasko sug'urtasi va shamoj kiradi. Sug'urta atamalarini ayrimlarini mazmunini yoritadigan bo'lsak, masalan sug'urta javobgarligi bu; sug'urtachi va

sug'urtalanuvchining qonun va shartnomada ko'zda tutilgan va o'z zimmasiga olgan majburiyatlari va vazifalari bo'yicha javobgarligi hisoblanadi. Sug'urta guvohnomasi (polis) hayot yoki umumiy sug'urtaning biror turi bo'yicha sug'urta amalga oshirilganligidan guvohlik beruvchi hujjatdir. Sug'urta polisida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining nomi sug'urta shartnomasining nomeri, sug'urta hodisalarining turlari, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va sug'urta polisining amal qilish muddati ko'rsatiladi. Sug'urta yoshi esa, bunda har bir shaxsiy sug'urta obyekti bo'yicha sug'urtalanuvchi shaxsni sug'urtalash chegarasi belgilab qo'yiladi. Masalan: sug'urta chegarasi 75 yosh. Sug'urta hodisasi sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasining sodir bo'lishi sug'urta hodisasi. Sug'urta rentasi, qo'shimcha nafaqani sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan muntazam daromad. Sug'urta qoplamasi, bu sug'urta hodisasi yuz berganligi tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag' sug'urta qoplamasi hisoblanadi. Sug'urta bozori bir necha sug'urta kompaniyalari tashabbusi bilan va ularni ishtiroki bilan barpo etiladi. Sug'urta bozori shahar, mamlakat va bir necha davlatlar miqyosida hamda xalqaro sug'urta bozori sifatida shakllanishi mumkin. Sug'urta portfeli, bu viloyat, shahar, tuman bo'yicha sug'urtalangan obyektlar va amaldagi shartnomalar sug'urta portfelini tashkil etadi. Sug'urta franshizasi, bu turli-tuman sabablar bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan sug'urtaning umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan qoplanmaydigan qismi sug'urta franshizasi deyiladi. Kargo sug'urtasi, bu transport vositalarida tashiladigan barcha yuklarni transport vositalarisiz sug'urta qilinishi tushiniladi. Kasko sug'urtasi faqat transport vositalari sug'urta qilinganligini bildiradi.

Transportga joylashtirilgan yuk ushbu sug'urtaga kirmaydi. Sug'urta bonusi, bu orqali uzoq yillar davomida falokatsiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali hisobidan beriladigan

ytngillikdir. Sug'urta brokeri, bu xalqaro termin bo'lib, sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchilarning o'zaro shartnomani bajarishdagi munosabatlarini o'rnatuvchi vositachi broker deb ataladi. Sug'urta auditori, bu sug'urta aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan mustaqil tekshirishga vakil qilingan maxsus tashkilot yoki shaxsni sug'urta auditori deyish mumkin. Sug'urtada ayrim hollarda shamoj atamasi ishlatiladi. Bu ishlab chiqarish turli hodisalar oqibatida to'xtab qolishi, buning natijasida olinishi kutilgan foyda miqdori kamayib ketadi. Shamoj qurilishi mumkin bo'lgan bunday zararlarni ko'zda tutib taxminan sug'urtalash usulidir.

Sug'urta atamaları hozirgi kunda sug'urta shartnomalarini tuzishda va sug'urta hodisalari yuz berganda ularni rasmiylashtirish normativ hujjatlar o'rganish jarayonida va xalqaro savdo-sotiq munosabatlarida juda tez-tez tilga olinmoqda. Sug'urta atamalarini yig'ib, ommabop shaklda lug'atlar chop etish va uni maktablarda litsey, kollejlarda, akademiylarda, institutlarda, universitetlarda talabalarni o'qitish jarayonida ularni tanishtirish va ularga o'rgatish, kelajakda mustaqil faoliyat olib borayotgan har bir madaniyatli, ziyoli mutaxassislariga, tadbirkorlarga va jamiyat a'zolariga har tomonlama foyda keltirishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Sug'urtalash tizimi uzoq tarixga ega bo'lib, uning kelib chiqishini ko'p adabiyotlarda Rim imperiyasi davriga boqlab talqin etishgan. Boshqa guruh olimlari sug'urtalashning vujudga kelishini Buyuk Britaniyaning dunyoni turli hududlarini zabt etib va savdo-sotiqni amalga oshirishi tufayli vujudga kelgan degan qarashlar mavjud. Sug'urtaning vujudga kelishi uning huquqiy asoslarini yaratilishi bilan bog'liq bo'lib, jumladan sug'urtalash to'g'risida Yevropada qonunlarning qabul qilinganligi, sug'urtani tizim sifatida shakllantirdi va uning rivojlanishiga imkoniyatlar yaratildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urta qachon paydo bo'lgan?
2. Dastlabki sug'urta jamiyatlarining shakllari.
3. Sug'urtaning vatani qayer hisoblanadi?
4. Birinchi sug'urta to'g'risidagi qonunlar.
5. Sug'urtaning tarifini bering.
6. Sug'urta atamalarining mazmuni.
7. Xavf-xatar nima?
8. Ogohlantirish nima uchun kerak?
9. Sug'urtada omonat nima ma'noni bildiradi?
10. London va Parijdagi sug'urta jamiyatlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонуни. –Т.: // «Халқ сўзи», 2002.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Суғурта бозорини янада эркинлаштириш ва ривожлантириш чоратadbirlari тўғрисида»ги Фармони. –Т.: // «Халқ сўзи» 2002.
3. Фуломов С.С., Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. – Бухоро, 2004.
4. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Суғурта бозори. – Бухоро, 2003.

Veb-sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi.
2. www.agros.uz
e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.
3. www.unik.gov.uz
e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.

II BOB

SUG'URTANING IQTISODIY MOHIYATI

2.1. Sug'urta fondi tushunchasi

Sug'urta o'zining sug'urtaviy himoyasi bilan insonlarning turli ko'rinishdagi talablarini qondirish maqsadida hosil bo'ldi va rivojlandi. Insonlar o'rtasida ishlab chiqarishda, muomalada, moddiy boyliklar iste'mol qilish va almashuv jarayonlarida sug'urtaning iqtisodiy munosabatlari hosil bo'ladi. U barcha xo'jalik subyektlari va jamiyat a'zolariga ko'rgan zararlarini qoplab berish kafilligini beradi. Tabiat va jamiyat kuchlarining stixiyali harakterdagi harakati oqibatidagi moddiy yo'qotishlar bilan bog'liq holatlar insonlar tomonidan favqulotda, kutilmagan holat sifatida qabul qilinadi. Bunday hodisalarning doimiy ravishda yuz berib turishi esa ularning obyektiv qonuniy harakterdagi, iqtisodiy munosabatlarga qarama -qarshi kuchlar ekanligini ko'rsatadi. Takror ishlab chiqarish jarayoni turli ko'rinishdagi tabiiy va ijtimoiy kuchlarning qarama -qarshiliklari va o'zaro kurashlaridan iborat.

Jamiyat va tabiat kuchlarining harakati natijasidagi buzg'unchiliklar natijasidagi zararlarining o'rnini qoplash, bunday holatlarning oldini olish to'g'risida odamlar o'rtasida munosabatlar hosil bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz ishlashini ta'minlash, erishgan hayot darajasini bir maromda ushlab turish uchun bo'ladigan odamlar o'rtasidagi munosabatlar sug'urta himoyasining iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi. Bu iqtisodiy kategoriya'ning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

- Tabiiy ofatlar yoki boshqa hodisalarning kutilmaganda yuz berishi.
- Zararlarning natural yoki qiymat ko'rinishida bo'lishi.
- Zararni qoplashning obyektiv zarurligi.
- Hodisa oqibatlarini yo'qotish va oldini olish choralarini ko'rish.

Sug'urta himoyasi iqtisodiy kategoriyasining mohiyati sug'urta tavakkalchiligi va uni himoyalash tadbirlaridan tashkil topadi. Sug'urta himoyasi iqtisodiy kategoriyasining moddiy ta'minoti sug'urta fondi deb nomlangan zahira fondi orqali ta'minlanadi. Sug'urtaning bu fondi sug'urta paydo bo'lishining ilk davrlarida natural shaklda bo'lgan. Keyinchalik tovar -pul munosabatlarining rivojlanishi bilan ular pul ko'rinishida hosil qilina boshladi. Sug'urta fondining natural ko'rinishi faqat bir tarmoq uchun xizmat qilgan bo'lsa, pul ko'rinishidagi formasi esa barcha tarmoqlarga xizmat ko'rsata boshladi.

Inson va jamiyat sug'urtaning zarurligini tushunib yetgandan keyin sug'urtaga qiziqish uyg'ondi va buning natijasida ma'lum sug'urta munosabatlari paydo bo'ldi. Ishlab chiqarishning yiriklashuvi, shaharlarning kattalashuvi, mehnat taqsimotining kuchayishi, savdo, xalqaro savdoning kuchayishi sug'urtaga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Kredit munosabatlarining rivojlanishi bilan kredit va sug'urta o'rtasida aloqalar kuchaydi.

Sug'urtani tabiat va jamiyat qonunlariga asoslangan holda ilmiy o'rganila boshlandi. Shu bilan sug'urta himoyasi iqtisodiy kategoriyasining ilmiy bazasi yaratildi. Sug'urta hodisalarini ilmiy asosda oldindan ko'ra bilish imkoniyatlari yaratildi. Bunday imkoniyat sug'urtachiga sug'urta fondi mablag'laridan foydalanishni optimallashtirish imkonini berdi va bu fond mablag'laridan investitsiya manbasi sifatida foydalanila boshlandi.

Sug'urta fondi jamiyatdagi takror ishlab chiqarishning zarur elementi sifatida maydonga keldi. Sug'urta fondi moddiy va pul vositasi shaklida, turli kutilmagan tabiat va ijtimoiy hodisalar oqibatidagi zararlarni qoplash maqsadida hosil qilinadi.

Sug'urta fondi yordamida tabiat va inson o'rtasidagi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi obyektiv qarama -qarshiliklar hal qilinadi. Jamiyatdagi takror ishlab chiqarishning uzluksizligi taminlanadi. Lekin shunga qaramasdan inson tabiiy ofatlarning ta'siridan qutila olmaydi. Ayniqsa tabiat hodisalarining ta'siri qishloq xo'jaligida kuchli bo'ladi.

Sug'urta fondining amortizatsiya nazariyasini XIX-XX asrlardagi ilmiy ishlarda ko'rish mumkin. Bu ilmiy qarashlarga ko'ra sug'urta fondi tashkil bo'lishining manbai ishlab chiqarish xarajatlaridir. Bu qarashlar taniqli nemis olimi Adolf Vagner tomonidan talqin qilingan. Uning g'oyasiga ko'ra sug'urta fondi ishlab chiqarish vositalari qiymatining asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tishi mobaynida hosil bo'ladi.

Hozirgi zamon ilmiy nazariyasiga ko'ra sug'urta fondi - bu milliy daromad va yalpi ijtimoiy mahsulotdan olingan mablag'dir. Sug'urta fondining absolyut qiymati bu sug'urta tomonidan qoplangan jamiyatning ko'rgan zararlaridan iboratdir.

Sug'urta fondi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Yig'ilgan moddiy va moliyaviy resurslar sug'urta hodisalaridan ko'rilgan zararlarni qoplash bilan birga investitsiya'ning manbai sifatida ham xizmat qiladi.

Sug'urta fondi uning ko'plab qatnashchilari bo'lmish korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu fondning qatnashchilari sug'urtalanuvchilar sifatida ishtirok etadilar.

Hozirgi zamonda sug'urta fondi faqat pul ko'rinishida bo'ladi, fondning mablag'larini sarflash aniq maqsadlarga - ko'rilgan zararni qoplash va sug'urtachi tomonidan hamda shartnoma shartlariga asosan sarf qilinadi. Sug'urta qoplamalari uchun zarur bo'ladigan mablag'larning miqdori statistik ma'lumotlar, prognozlar va ehtimollar nazariyasiga asosan aniqlanadi.

2.2.Sug'urtaning iqtisodiy tabiati

Sug'urta - bu yuridik yoki jismoniy shaxsning tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar oqibatidagi ko'rgan zararini qoplash demakdir. Ko'rilgan zararlar sug'urtachining ixtiyorida bo'lgan sug'urta fondi hisobidan qoplanadi. Sug'urtaning zarurligini shunda ko'rish mumkinki, hosil bo'ladigan zararlar shunday sabablar oqibatida yuz beradiki, bu sabablarga qarshi kurashishda inson oqijlik qiladi,

bunday hodisalar uchun hech kimdan zararni qoplashni talab qilib bo'lmaydi yoki insonning yo'l qo'ygan xatosi tufayli ko'rilgan zararni u to'lab berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bunday holatlarda faqatgina sug'urtaning yordamiga taya'nish mumkin. Sug'urta o'z tarixi davomida mulkiy sug'urtaning juda ko'plab ko'rinishlarini amalga oshirib keldi. Keyinchalik mulkiy sug'urta bilan birgalikda shaxsiy sug'urta deb nomlanuvchi inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq sug'urta turlari kirib keldi. Sug'urta bilan tadbirkorlik faoliyati uzviy bog'langan. Chunki tadbirkorning faoliyati juda ko'plab tavakkalchiliklardan iboratdir. Bu tavakkalchiliklarga yo'l qo'yishda esa tadbirkor faqat sug'urtaga taya'nishi mumkin.

Sug'urta iqtisodiy kategoriyasi quyidagi belgilarga ega:

- qayta taqsimlash munosabatlarining mavjudligi;
- sug'urta tavakkalchiligining mavjudligi;
- sug'urta ijtimoiy jamiyatining sug'urtachilar va sug'urtalanuvchilardan tashkil topganligi;
- guruh manfaatlari va alohida manfaatlarni ko'zda tutilishi;
- zararning qayta taqsimlanishi va vaqti;
- sug'urta to'lovlarining qaytarilishi;
- sug'urta faoliyati o'z - o'zini qoplash shaklida ish yuritishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaning roli yanada ortdi. Sug'urta turli xil hodisalar tufayli ko'rilgan zaralarning o'rnini qoplabgina qolmasdan, ishlab chiqarishdagi uzilishlar oqibatidagi yo'qotishlarni ham o'rnini qoplab beradi.

Oldingi adabiyotlarda sug'urtani moliya'ning iqtisodiy kategoriyasiga qo'shib yuborilar edi. Bu sug'urtaning faoliyat maydonini yetarli darajada baholamaslikka olib kelar edi.

Oldingi davrida boshqa tarmoqlar singari sug'urta ham to'liq davlat monopoliyasida edi. Sug'urta davlat byudjetini to'ldirishning bir vositasi sifatida ko'proq faoliyat yuritir edi.

O'zining kelib chiqishi va faoliyati bilan sug'urta moliya va kreditdan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi. Sug'urta iqtisodiy

kategoriyasining mohiyati pul mablag'larini to'plash va sarflash bo'lsa, moliya iqtisodiy kategoriyasining ham mohiyati shundan iborat. Faqatgina sug'urtaning mablag'lari o'z a'zolariningina to'lovlaridan hosil bo'ladi va uning a'zolarigagina sarflanadi.

Shunday qilib sug'urtaning moliya va kredit kategoriyalariga o'xshash tomonlari ko'p bo'lib, lekin shu bilan birga iqtisodiy kategoriya sifatida faqat o'ziga xos bo'lgan funksiyalarni ham bajaradi. Sug'urta iqtisodiy kategoriyasining funksiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Maxsus sug'urta fondini tashkil qilish.
2. Zararlarni qoplash va fuqarolarning moddiy ta'minoti.
3. Sug'urta hodisalarining oldini olish va zararni minimallashtirish.

Birinchi funksiya - bu tavakkalchiliklar uchun to'lov maqsadidagi maxsus sug'urta fondini tashkil qilish bo'lib bu fondni tashkil qilish javobgarligini sug'urta kompaniyalari oladi. Bu fond majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari hisobidan tashkil etiladi. Iqtisodiy va sotsial holatlardan kelib chiqqan holda davlat mamlakatdagi sug'urta ishining rivojini tartibga soladi. Bu fond zahira va rezerv qismlaridan iborat bo'ladi. Bu fond hisobidan investitsiya maqsadlarida ham foydalaniladi.

Ikkinchi funksiya - bu sug'urta zararlarini qoplash va fuqarolarning moddiy ta'minotini amalga oshirish. Zararlarni qoplash huquqiga sug'urta fondini tashkil qilishda qatnashgan jismoniy va yuridik shaxslar ega bo'ladi. Ko'rilgan zararni qoplash oldindan tuzilgan sug'urta shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi funksiya - sug'urta hodisasi to'g'risida ogohlantirish, sug'urta hodisasi yuz berishini oldini olish va zararni minimallashtirish. Bunda bir qancha tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi, baxtsiz hodisalar, tabiat hodisalari yuz berishining oldini olish maqsadidagi moliyaviy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun sug'urta tashkiloti alohida pul fondlarini tashkil qiladi. Sug'urta tashkiloti tomonidan ushbu

maqsadlarda qilingan xarajatlar sug'urta hodisalari sonini kamaytiradi va natijada sug'urta qoplamlari uchun ketadigan pul mablag'lari kamayadi.

2.3.Mulkiy va shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyati

Mulkiy sug'urtaning iqtisodiy tuzilmasi shundayki, bunda ushbu sug'urta a'zolarining mulkiga yetgan zararni qoplash maqsadida alohida sug'urta fondi tashkil etiladi. Bunda sug'urta obyektini sug'urtalanuvchining mulki bo'lishi yoki bu mulkka undan foydalanuvchi egalik qilayotgan bo'lishi mumkin.

Mulkiy sug'urtaning o'ziga xos tomoni shundaki, tavakkalchilik funksiyasigina unga xos bo'ladi. Mulkiy sug'urta shaxsiy sug'urtadan butunlay farq qiladi. Mulk sug'urtasida dastlab mulklar xo'jalik subyektlari bo'yicha turkumlanadi. Bu turkumlash mulkning iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga dahldorligiga qarab amalga oshiriladi. Mol - mulk sug'urta qilinayotganda shartnoma summasi mulkning shartnoma tuzilayotgan paytdagi haqiqiy qiymatidan oshmasligi lozim. Korxonalar mulki sug'urta qilinayotganda korxonaning binolari, qurilish obyektlari, transport vositalari, inventarlar, tovar zahiralari, ishlab chiqarish vositalari sug'urta qilinishi mumkin. Tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik olingan mulklar, saqlanayotgan, qayta ishlanayotgan, tashilayotgan mulklar ham sug'urta qilinishi mumkin. Qishloq xo'jaligida chorva mollari, parrandalar, yetishtirilayotgan hosil va boshqalar sug'urtalanishi mumkin.

Fuqarolarning mulkini sug'urtalash quyidagi guruhlariga ko'ra amalga oshiriladi:

- qurilish uchastkasi qurilish materiallari bilan birga:
- uy-ro'zg'or buyumlari:
- chorva mollari:
- transport vositalari:

Qurilish bilan bog'liq bo'lgan mulklar uy-joylar, dala hovlilar

xo'jalik qurilishlari, garajlar va boshqalar bir qancha hodisalar yong'in, turlicha portlashlar, suv toshqini va hokazolardan sug'urta qilinadi. Qurilish va boshqa mulklarni sug'urta qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mulkning zarar ko'rish hodisalarning dalilini belgilash.
2. Ko'rilgan zarar sabablarini aniqlash.
3. Zarar ko'rgan mulklarni obyektlarini aniqlash.
4. Zarar summasi va sug'urta qoplash summasini hisoblab chiqish.

Mulkiy sug'urtaning hozirgi bozor sharoitida yanada rivojlanib borayotganligi aholining mulkka egalik qilayotganligini har bir fuqaroning o'z mulkini turli hodisalardan kafolatlashga bo'lgan intilishi kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Bozor iqtisodiyoti mamlakat miqyosida hamma tarmoqlarda mulkdorlar doirasining kengayishiga imkoniyatlar ochib beradi va mulkdorlar sinfi shakllanib mamlakatda sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj oshib borishiga olib keladi.

Shaxsiy sug'urtaning vujudga kelishi juda qadimgi davrga borib taqaladi. Ayniqsa qadimgi rimliklar, jumladan legionerlar jamiyatlar tuzib, o'zlarini kassasiga ega bo'lganlar va ko'p hollarda legionerlarni davlat sug'urtalagan va sug'urta jamiyatlariga legionerlar qisman sug'urta badalini to'lab turganlar. Umuman Italiyada sug'urta jamiyatlari aholining kambag'al tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatgan. Undan tashqari shaxsiy sug'urtaning asoschilaridan biri italiyalik shifokor Totti bo'lgan. Totti fuqarolarning yoshiga qarab sug'urtalash usulini ishlab chiqqan va uni hayotga joriy etgan shaxsdir.

Shaxsiy sug'urta jamiyat miqyosida rivojlanib borishiga aholining bu turidan manfaatdorligi oshib borishi tufayli yuz bera boshladi. Shaxsiy sug'urta tarkibini takomillashtirib borishni uning bo'g'inida ko'rish mumkin, ya'ni risk (tavakkal) lar hajmiga ko'ra hayotni sug'urtalash, mehnatga layoqatsizlik, tibbiy xarajatlar sug'urtasiga

bo'lish joizdir. Mavjud manbalarga asoslanib shaxsiy sug'urtaning turlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- A) Hayot sug'urtasi;
- B) Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Agar shartnomalarda ko'rsatilgan shaxslarning soniga qarab sug'urtalasak:

- A) Individual sug'urtalash;
- B) Kollektiv sug'urtalash.

Sug'urta ta'minoti davriga qarab sug'urtalaydigan bo'lsak:

- A) Qisqa muddatli;
- B) O'rta muddatli;
- V) Uzoq muddatli.

Agar sug'urta qoplash summasini shakliga qarab turkumlasak:

- A) Birdaniga to'lanadigan sug'urta summasi;

B) Renta shaklidagi sug'urta summasini to'lashga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Ko'p hollarda sug'urta mukofotlarini to'lash shakliga qarab ko'radigan bo'lsak:

- A) Birdaniga mukofotning to'lanishi bilan sug'urtalash;
- B) Yillik mukofot to'lovini to'lash.

Shaxsiy sug'urtada va mulkiy sug'urtada sug'urtalanuvchini manfaatlari shartnoma asosida himoya qilinadi va ularni sug'urta kompaniyasi ko'radigan zararini qoplashni o'zining vazifasi deb biladi.

Qisqacha xulosalar

Sug'urtaning paydo bo'lishi, avvalo sug'urta badallari bilan boqliq bo'lib, sug'urta jamiyatiga a'zo bo'lgan ququqiy va jismoniy shaxslar a'zolik badallarini jamiyatga to'lashlari natijasida sug'urta fondi vujudga keladi. Sug'urta fondining asosiy manbai sug'urtachilar to'lagan to'lovlar yoki sug'urta atamalarida bu jarayonni sug'urta mukofotlari deb ham atashadi. Faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta fondlari mablag'lari hisobidan turli baxtsiz

hodisalar tufayli zarar ko'rgan sug'urtalanuvchilarga sug'urta qoplash puli to'lanadi. Sug'urta fondi sug'urtaning moliyaviy manbalari qisoblanib, uni tashkil etish va uning mablag'larini sug'urta qodisasi yuz berganda mijozlarga to'lashni tushunish kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urta fondi nima?
2. Tabiiy ofatlar zarar keltiradimi?
3. Zararlar qanday qoplanadi?
4. Sug'urta hodisasi nima?
5. Sug'urta fondining manbalari nima?
6. Sug'urta zahiralari mazmuni.
7. Sug'urtaning bozor iqtisodiyotidagi roli.
8. Sug'urtani moliya bilan, kredit bilan aloqadorligi.
9. «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» tamoiili nima?
10. Lyuksemburg shahrida 1960 yilda nima o'tkazildi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонуни. –Т.: // «Халқ сўзи», 2002.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 413-сонли Қарори. –Т.: 2002.
3. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. –Бухоро.
4. Боев Х.И. Суғурта: Махсус атамалар луғати. –Т.: ТДИУ, 2005.

Veb - sayt va elektron pochталar

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz

e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz

e - mail: overseas@unik.gov. - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

III BOB

DAVLATNING SUG'URTA SIYOSATI

3.1. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning zarurligi

Sug'urta kompaniyalarining faoliyati iqtisodiyotning boshqa xo'jalik subyektlari faoliyatidan tubdan farq qiladiki, bu tashkilotlarning faoliyati ishlab chiqarishning turli tarmoqlarining to'xtovsiz ishlashini ta'minlash, turli kutilmagan hodisalar tufayli ko'rilgan zararlarni qoplashga yo'naltirilgan bo'ladi. Har bir sug'urta tavakkalchiligi o'zining alohida xususiyatlariga, qamroviga va o'lchoviga ega. Uning hajmi bir qancha faktorlarga bog'liq bo'ladi, bular sug'urta hodisasining ehtimollik darajasi, tabiat buzg'unchi kuchlarining intensivligi, mulk qiymati va hokazolar. Xavf-xatarlarning yuz berishi ba'zi hollarda katastrofik darajada bo'lib, yirik moddiy zararlar va ko'p sonli insoniyatni halokatga olib keladi. Bu ilmiy texnikaviy rivojlanish natijasidagi ishlab chiqarish, transport vositalari va boshqa mulklarning yiriklashuvining ham natijasidir. O'z o'rnida bu sug'urtachilarning faoliyat darajasini oshiradi. Sug'urtachilarning ijtimoiy darajadagi javobgarligining ortishi ular ustidan davlat nazoratini kuchaytirishni talab etadi. Birinchi o'rinda, bu nazorat sug'urta tashkilotlarining moliyaviy ahvolini o'rganish va ular tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyati bo'lmagan sug'urtachiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi umuman sug'urtaga bo'lgan ishonchni ham yo'qotadi. Bu esa o'z o'rnida davlat institutlariga bo'lgan ishonchni ham yo'qotadi. Shu tufayli ham davlat sug'urtachi faoliyatiga chetdan qarab tura olmaydi. Davlat sug'urta nazoratining asosiy maqsadi sug'urtalovchilarning to'lovga qobilligini kafolatlovchi sug'urta fondlarini ko'paytirish va uning hajmini nazorat qilib turishdir.

Sug'urta bozori moliya - kredit tizimining bir bo'limi sifatida

shu tizimning bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadidagi davlat nazoratining obykti hisoblanadi. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shu faoliyat uchun ishlaydigan alohida soliq siyosati, alohida qonun va qarorlar, litsenziyalash faoliyati vositasida amalga oshiriladi. Davlat umumjamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda sug'urtaning majburiy turlarini joriy qiladi.

Sug'urtani davlat tomonidan nazorat qilish sug'urtachilar tomonidan quyidagi uchta talabning bajarilishini nazarda tutadi:

1. Sug'urta shartnomasi tuzish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning davlat ro'yxatidan o'tishlari asosiy talab. Ro'yxatga olish jarayonida sug'urtachining professional yaroqliligi va moliyaviy holati aniqlanadi.

2. Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berishni nazarda tutuvchi litsenziyaga ega bo'lish

3. Sug'urtachilar tomonidan oshkoralikning taminlanishi. Har bir sug'urta tashkiloti o'zining sug'urta faoliyati, moliyaviy holati to'g'risida to'g'ri aniq va to'liq ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.

Sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobilligini aniqlash uchun ularda mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'larining miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Bu esa ular olgan majburiyatlar hajmi bilan bo'sh pul mablag'lari o'rtasidagi nisbatni solishtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda bo'sh turgan pul mablag'lari miqdori majburiyatlar miqdoriga nisbatan 16 % ni tashkil etishi kerak. Keyingi nazorat sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta nazorati boshqarmasiga belgilangan muddatlarda taqdim qilingan moliyaviy hisobotlar asosida amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisoboti shakllari va tuzilmasi mamlakatda qabul qilingan hisobot shakllari va buxgalteriya standartlariga mos kelishi kerak. Sug'urtachilar o'zlarining yillik moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalarini matbuotda e'lon qilishlari kerak.

Sug'urtachilarning faoliyati ustidan joriy nazorat mustaqil

auditorlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Matbuotda e'lon qilinadigan hisobotlar ham shu auditorlar xulosalari asosida beriladi.

3.2. Sug'urta faoliyatini rivojlantirishda davlatning roli

Malumki kategoriya iqtisodiy munosabatlarning eng muhim va murakkab qirralarini o'zida aks ettiradi. Sug'urta esa shunday ikki qirrali kategoriyaki, bir qirrasini moliya munosabatlariga, bir qirrasini esa kredit munosabatlariga xizmat qiladi. U ikki qirrali ikkinchi darajali kategoriyadir. Shuning uchun ham u davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. O'z o'rnida davlat, bu sohani rivojlantirishdan manfaatdordir. Shu munosabat bilan davlat sug'urta faoliyatini rivojlantirish va tartibga solish maqsadida shu sohaga doir qonunlar qabul qiladi, qarorlar chiqaradi va normativ hujjatlar ishlab chiqadi. Zarur bo'lganda soliqlar va boshqa vositalar orqali uning rivojlanishiga imkoniyatlar yaratish maqsadida imtiyozlar beradi. Masalan; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni 2002-yil 31-yanvarda qabul qilingan bo'lib, farmonning asosiy mazmuni sug'urta kompaniyalarini mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, ularni moliyaviy va moddiy texnika bazasini mustahkamlash, kadrlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish, kompaniyalarni yangi zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash uchun ularni 3 yil muddatga davlatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilinganligi bu davlat tomonidan mamlakatimizdagi sug'urta kompaniyalarini iqtisodiy rivojlanishiga yaratilgan katta imkoniyat hisoblanadi.

Respublikamizda bu borada anchagina ishlar amalga oshirildi. 2005-yilga kelib, respublikamizda «Uzagrosug'urta», «Uzbekinvest», «Kafolat», «Madad», «ALSKOM», «Ishonch», «Toshkent sug'urta», «UVT INSURANS» SK va boshqa sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini jadallashtirdilar. Ushbu sug'urta

kompaniyalari tomonidan 2005-yil 6-oy yakunlari bo'yicha 1,9 mln. dan ortiq sug'urta shartnomalari tuzilgan bo'lib, yigilgan jami 21,8 mlrd. So'm sug'urta mukofotlari o'tgan yilning 6 oyiga nisbatan 24,1 % ga oshdi. Sug'urta tashkilotlarining sug'urta shartnomalari yuzasidan olgan majburiyatlari hammasi bo'lib, 18 trln. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning 6 oyiga nisbatan 1,6 barobariga oshgan. sug'urtalovchi kompaniyalar tomonidan 2005-yil 6-oy yakunlari bo'yicha hammasi bo'lib, 1,9 mlrd. So'm sug'urta qoplamalari to'langan.

Hozirda respublikamizda erkin raqobatga asoslangan sug'urta bozori tashkil etildi va bu bozorda turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini amalga oshirib, haridorlarga sug'urta mahsulotlarini taklif etib kelmoqda.

O'zbekistonda sug'urta tizimini rivojlantirish uchun va sug'urta kompaniyalarini mustaqil sug'urta bozorida raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun, vazirlar mahkamasi tomonidan sug'urta faoliyati klassifikatori ishlab chiqildi. Davlat tomonidan xorij investitsiyalarini O'zbekistonga kirib kelishini sug'urtalash bo'yicha qonun qabul qilinganligi, mamlakatimizda sug'urta kompaniyalarini ham investitsion faoliyat bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib berilganligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan O'zbekiston hukumati va AQSh hukumati hamkorligida tuzilgan «Uz AIG» sug'urta kompaniyasi tashkil etilib, mamlakatimizda faoliyat olib borilayotganligi davlatning respublikamizda sug'urta tizimini rivojlantirishdan manfaatdor ekanligini ko'rsatmoqda.

3.3. Sug'urtalanuvchi manfaatlarini himoya qilishda davlatning roli

O'zbekistonda sug'urta ishi va sug'urta to'g'risidagi qonunlarni davlat tomonidan ishlab chiqilganligi va Oliy majlisda qabul qilinib,

Prezidentimiz tomonidan tasdiqlanganligi respublikamizda sug'urta tizimini va sug'urta biznesini qonuniy asosda rivojlantirish uchun hamma imkoniyatlar yaratilganligi va mamlakatimizda turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarini va ularning shohobchalarini barpo etilayotganligi aholining sug'urta xizmatlaridan foyda ko'ruvchilarning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shular bilan bir qatorda sug'urta kompaniyalari bilan sug'urtalanuvchilar orasidagi iqtisodiy munosabatlarda muammolar ham kelib chiqishi tabiiy. Bu sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi orasidagi sug'urta shartnomalarini va javobgarlikni tomonlarning his etishi muhim hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 919-moddasida shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining, o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas topilishi qonunda o'z aksini topgan. Yana fuqarolik kodeksida ko'rsatib o'tilganki, tomonlar tomonidan: Shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfi bu shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf naf oluvchi foydasiga, hatto sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham sug'urtalangan hisoblanadi.

Agar buni mulkiy sug'urta shartnomasi misolida ko'radigan bo'lsak: Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq, bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy

manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'voni) majburiyatini oladi.

Agar shaxsiy sug'urta shartnomasi misolida ko'radigan bo'lsak: shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi), boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs) ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan u muayyan yoshga to'lgan, kunning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Sug'urtalanuvchilarni manfaatini davlat sud sistemasi orqali himoya qiladi va sug'urtachi hamda sug'urtalanuvchi sud jarayonida o'zining manfaatlarini advokatlar yordamida himoya qilish huquqini o'zlarida saqlab qoladilar.

3.4. Sug'urta ishini davlat tomonidan tartibga solish

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tizimi davlat tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi. Masalan, Germaniyada davlat sug'urta nazoratining asosiy vazifasi sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya qilish bo'lib, sug'urtalanuvchilar ko'zda tutilmagan kasodga uchraganda zararni qoplaydigan davlat hisoblanadi. AQShda hozirgacha mamlakatda sug'urta tizimini tartibga soladigan fideral qonun qabul qilinmagan. Hozirgi kungacha AQShda har bir shtatning o'zini hududida amal qiladigan qonunlari mavjud. Angliyada sug'urta kompaniyalari juda erkin faoliyat olib boradi. Ularning moliyaviy faoliyati bo'yicha hisobotlarini tekshirish va talab qilish 4 yilda bir marta amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatiga boshqa tashkilotlari aralasha olmaydi.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan keyin faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalariga davlat qonuniy erkinliklar

yaratib berdi. Sug'urta kompaniyalari o'zlari yuridik shaxs sifatida mijozlari bilan shartnomalar imzolaydilar, sug'urta hodisalarini o'zlari ekspertiza qiladilar va sug'urta qoplash summalarini o'zlari hisoblab mijozlarini bankdagi hisoblarga o'tkaza oladilar. Sug'urta kompaniyalari xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilish huquqiga ega, o'z ixtiyoridagi mablag'larni investitsiyaga yo'naltira oladilar va mamlakatda favqulotda yuz bergan baxtsiz hodisalarga moliyaviy yordam ko'rsata oladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, endi mustaqillikka erishgan va bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat sug'urta tashkilotlarini faoliyati ustidan ma'lum yillar davomida nazorat qilishi va ularning faoliyatini tashkil etish, tartibga solish va boshqarish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bu ko'rilgan chora-tadbirlar sug'urta kompaniyalarining rivojiga va mamlakat sug'urta tizimini takomillashib borishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida sug'urtaga bo'lgan talab oshib borganligini hisobga olgan holda davlatimiz sug'urta kompaniyalari faoliyati ustidan quyidagi nazorat usullarini qo'llab sug'urta kompaniyalari ustidan amalga oshirilayotgan nazorat samaradorligini oshirishga erishildi. Bular quyidagilardan iborat:

- Aniq, to'liq va to'g'ri moliyaviy, buxgalterlik va boshqa ma'lumotlardan foydalanish.

- Nazoratning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi.

- Davlat tomonidan qo'llaniladigan sanksiyalarning o'z vaqtida va tez bajarilishi va h.k.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim faktorlaridan biri monopoliyaga qarshi milliy qonunchilikni ishlab chiqishdan iboratdir. Bu holat ayniqsa sug'urta faoliyatiga xosdir. Chunki sovet tuzumi davrida sug'urta sohasi to'liq davlat monopoliyasida edi. Yuqorida sanab o'tilgan qabul qilingan qonun


va qarorlar antimonopol holatni shakllantirishga qaratilgandir. Hozirgi paytda O'zbekistonda turli ko'rinishdagi sug'urta kompaniyalari o'zaro teng huquqli faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston fuqarosi yoki yuridik shaxs o'zi xohlagan sug'urta tashkilotiga murojaat qilib, shu tashkilotning sug'urta xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega. Sug'urta ishini davlat tomonidan tartibga solish vositalari quyidagilardan iborat:

- sug'urta faoliyatini litsenziyalash;
- moliyaviy va buxgalterlik hisobotlarini sug'urta tashkilotlaridan talab qilish;
- sug'urta fondlarini tashkil qilishning tartiblarini belgilash;
- sug'urtaviy mablag'larni joylashtirish qoidalarini belgilash;
- sug'urta tashkilotining aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi nisbatni belgilash;
- sug'urta brokerlarini ro'yxatdan o'tkazish;
- sug'urtachilar reestrini yuritish;
- litsenziyalarni bekor qilish yoki vaqtincha to'xtatish;
- soliq siyosati;
- antimonopol nazorat va h.k.

O'zbekistonda sug'urta ishini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solish Moliya vazirligi qoshidagi sug'urta nazorati bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatimizda sug'urta tizimi davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar yordamida boshqariladi va tartibga solinadi. Davlat sug'urta faoliyatini rivojlantirish tashabbuskori qisoblanadi qamda qonunlarni takomillashtirish, normativ hujjatlarni doimo tartibga keltirish sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilishni amalga oshiradi. Sug'urta faoliyatini mamlakat miqyosida davlat va uning vakolatli organlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi amalga oshiradi.



Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekistonda sug‘urta qachon paydo bo‘lgan?
2. Dastlab qaysi korxonalar sug‘urtalangan?
3. Mustaqillik davrida birinchi qonun qachon qabul qilindi?
4. Davlat sug‘urta kompaniyalari qachon tashkil etildi?
5. «Uzbekinvest» qanaqa kompaniya?
6. Qo‘shma sug‘urta kompaniyalari nima?
7. Xususiy sug‘urta kompaniyalari mavjudmi?
8. Davlat sug‘urta nazorati vazifasi.
9. «UzAIG» qachon tashkil topgan?
10. Sug‘urta to‘g‘risidagi ikkinchi qonun.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Қонуни.- Т.: // «Халқ сўзи».2002
2. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустақкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим.-Т.: // «Халқ сўзи», 2002.
3. Журавин С.Г. Краткий курс истории страхования.-М.: 2005.
4. Сухоруков М. М. Профессия страхового агента. –М.: 2005.

Veb-sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasi.
2. www.agros.uz
e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.
3. www.unik.gov.uz
e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

IV BOB

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA ISHINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

4.1. O'zbekistonda sug'urtaning paydo bo'lish sabablari

Ijtimoiy ishlab chiqarishni uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydigan sug'urta bir necha asrlardan boshlab dunyoning yuzlab mamlakatlarida turli shaklda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston ham jahon mamlakatlari bilan savdo-sotiq, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda turizm bo'yicha aloqalarni kengaytirib kelgan. Ammo turli sabablarga binoan O'zbekistonda 1918-yilgacha sug'urta jamiyatlari va kompaniyalari barpo etilmagan va sug'urta tizimi yaratilmagan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston xalqlarini bosib olinishi va Rossiya tarkibiga kiritilishi O'zbekiston hududida ham imperiyadagi mavjud qonun-qoidalar joriy qilindi. Jumladan, Rossiya kapitalistlari tomonidan O'zbekistonda ko'rilgan yog'-moy zavodlarini mahalliy aholi tomonidan yoqib yuborilish xavfidan qo'rqqan zavod egalari O'zbekistonda sug'urta jamiyatlarini tashkil qildilar va o'zlarini mol-mulklarini va zavodlarini sug'urtalab qo'yishga erishdilar. Shu sababli O'zbekistonda dastlabki sug'urta jamiyatlari, tashkilotlari paydo bo'ldi va O'zbekiston hududida, shu jumladan Buxoro amirligi bilan tutash joylarda Rossiya monopoliyalarining filiallari, bo'limlari tashkil qilinib, ular davlat idoralarini, binolarini, paxta va yog' zavodlarini, ulgurji savdo, transport korxonalarini asosan yong'in hamda boshqa falokatlardan sug'urta qilish bilan shug'ullanib kelganlar. Respublikamiz hududida shaxsiy sug'urta ham Rossiya sug'urtachilari tomonidan amalga oshirilgan shaxsiy sug'urta rus millatiga mansub fuqarolar orasida keng tarqalgan. Sug'urta hujjatlari rus tilida rasmiylashtirilgani, sug'urta tushunchasi diniy tushunchalarga mos kelmagani uchun mahalliy aholi sug'urtaga kam tortilgan. Ammo Oktyabr inqilobidan keyin 1918-yilda RSFSR hukumati tomonidan Turkiston respublikasiga ham

sug'urtalashni joriy qilish majburiy tarzda amalga oshirila boshlangan. 1924-yili O'zbekiston Respublikasi Moliya xalq komissarligi tarkibida sug'urta bosh boshqarmasi tuzildi va bu boshqarma davlat qarorlariga binoan majburiy sug'urtani respublika hududida tashkil etish va uni amalga oshirish hamda sug'urta tashkilotlarini nazorat qilish, boshqarish, taftish qilish bilan shug'ullanib kelgan. Respublikada asosan majburiy sug'urta, ayniqsa imoratlarni yong'indan sug'urtalash, ishsizlik sug'urtasi, keyinchalik jamoa xo'jaliklarini mol - mulkini sug'urtalashga katta e'tibor berilgan. Rossiya O'zbekistonni paxta bazasiga aylantirishni ko'zlab, jamoa xo'jaliklarini sug'urtalashga e'tiborini qaratdi. Rossiya O'zbekistonda majburiy sug'urta badallaridan xosil bo'lgan sug'urta fondining anchagina qismini markazlashtirilgan fondlar yo'li bilan ittifoq mablag'lariga aylantirdi. Lekin shunga qaramasdan sug'urta hisobidan respublika ishlab -chiqarishiga yetkazilgan zararlar ma'lum miqdorda qoplandi.

4.2. O'zbekistonda sug'urta ishini qayta tashkil etish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida mustaqil sug'urta tizimi barpo qilindi. U O'zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zbekinvest» va «Madad» kabi alohida davlat sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Alohida «Sug'urta faoliyati to'g'risi»da Qonun qabul qilinib, unda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi. Xorijiy mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta kompaniyalar tashkil etildi. Sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi, xorijiy mamlakatlar mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi. Sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi tobora ortdi, ya'ni banklardan olingan qarzlarning qaytarilishini sug'urtalash

kengaydi. Majburiy sug'urta foydasi qisqarib, ixtiyoriy sug'urta turlari ko'paydi. Turli xil mulk shakllariga asoslangan sug'urta tashkilotlari ko'payishi natijasida sug'urta bozori vujudga kelib, o'zaro raqobat yuzaga keldi.

O'zbekistonda sug'urta munosabatlarning o'zida ifodalagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 52-bobida 48 ta sug'urtaga oid modada kiritilib ularda sug'urtaning bir qator qoidalari kiritilgan.

Sug'urta bo'yicha munosabatlar O'zbekiston respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Sug'urta to'g'urida»gi Qonuni qabul qilinganligi O'zbekistonda sug'urta tizmini qaytadan tashkil etilishiga olib keldi. Respublikamizda mustaqillik tufayli bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tarkibidan chiqib mustaqil «Uzagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil qilindi. «Uzbekinvest» davlat sug'urta kompaniyasi, «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi hamda «Madad» sug'urta agentligi tashkil etildi, sug'urta kompaniyalari milliy xususiyatlarimizni etiborga olib aholini mol mulkini sug'urtalash bilan fuqarolarning hayotini sug'urta qilish tovar ishlab chiqaruvchilarning hamda tadbirkorlarning turli tavakalliklardan sug'urtalash kunlik odatiy tusga kirdi.

Respublikamizda sug'urta bozorini erkinlashtirish hamda uni rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirildi, jumladan davlat korxonalarini sug'urtalash xususiy xo'jaliklarini sug'urtalash, ayniqsa fermer xo'jaliklarini sug'urtalash ommalashib bormoqda viloyatlarda sug'urta kompaniyalarning hududiy bo'limmalarin ko'paytirish sug'urtachi kadrlar tayyorlashga O'zbekiston rahbariyati alohida e'tibor berib kelmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sug'urta infrastrukturasi yaratish tufayli davlat buyujetiga milliardlar kelib tushushini taminlash mumkin. Sug'urta tizmini qayta ko'rish natijasida aholini moddiy yordamga muhtoj guruhlarga moliyaviy yordam ko'rsatish

mumkun bo‘ladi ayniqsa respublikada sug‘urta ixtisoslashgan kollejlari ochish, sug‘urta sohasida ishlovchilarning malakasini oshirish hamda oliy tizim orqali sug‘urtachi kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish muhimdir.

Respublikamizda sug‘urta to‘g‘risidagi axborotlarning o‘zida mujasamlashtiradigan va uni aholiga yetkazadigan gazeta va jurnallarni nashr etish jamiyat a‘zolarini sug‘urta bo‘yicha bilimlarini oshirishga saviyalarini yuklashtirishga erish mumkin deb hisoblaymiz.

Shuni takidlash joizki hozirgi kunda respublikamizda sug‘urtaga ixtisoslashgan litseylar, kollejlarda insitutlar va universitlarda sug‘urtachi oliy ma‘limotli mutaxassislarini tayyorlab beradigan fakultetlar tashkil qilinmaganligi achinarli holdir.

Sug‘urta joxondagi rivojlangan mamlakatlarini hammasida foaliyat ko‘rsatib kelmoqda va sug‘urta kompaniyalari aholini ijtimoiy himoyalash bilan muhtojlarga kambag‘allarga, qashshoqlarga modiy yordam berishda davlatning tayanchiga aylanib bormoqda.

4.3. O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorini shakllantirish

Bozor iqtisodiyoti turli mulkchilikka asoslangan holda rivojlanib boradi. Turli mulk shaklidagi korxonalar, tashkilotlar va o‘z o‘rnida bir xil mulk shaklidagi bir soha korxonalari o‘rtasidagi raqobatning paydo bo‘lishi va kuchayishi har bir korxonani iqtisodiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun kurash olib borishga majbur etadi. Sug‘urta tashkilotlari o‘rtasidagi ushbu raqobat kurashi sug‘urta bozorida vujudga keladi.

Sug‘urta bozori turli xil mulk shaklidagi sug‘urta tashkilotlarining o‘z sug‘urta xizmatlari va boshqa xizmat turlarini bozorda taklif etishi natijasida hosil bo‘ladi. Sug‘urta bozori bir shahar, mamlakat, region miqyosida va xalqaro sug‘urta bozori sifatida shakllanadi.

O‘zbekiston ham mustaqillikka erishgandan keyin alohida sug‘urta tizimi shakllandi va unda turli mulk shakllaridagi alohida

sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi. Xalqaro sug'urta bozorida ham O'zbekiston o'z sug'urta xizmatlarini taklif etmoqda. O'zbekiston milliy sug'urta bozorida milliy sug'urta kompaniyalarimizni 3 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Davlat sug'urta kompaniyalari
2. Respublika sug'urta nazorati bosh boshqarmasiga qarashli tashkilotlar
3. Xususiy va qo'shma sug'urta tashkilotlari.

Sug'urta rivojlangan munosabatlarning kuchli tayanchlaridan biri, uning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy tizim, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabi va ishonchiga bog'liq bo'ladi. Sug'urta tizimi sug'urtalanuvchi uchun oddiy, tushunarli va ishonchli bo'lishi kerak. O'zbekistonda sug'urta bozori rivojlanishining huquqiy asosi bo'lib Oliy Majlis tomonidan 1993-yil 6 martda qabul qilingan va 1994, 1997-yillarda qaytadan o'zgartirishlar kiritilib, 2002-yilda «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning qabul qilinganligi va amaliyotga kiritilganligi ham sug'urta bozorini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Milliy sug'urta bozorida tuzilmaviy siyosatning asosiy tomoni ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari o'rtasidagi nisbatni mukobillashtirish, bozor munosabatlarini takomillashtirish, bozorda erkin raqobatni shakllantirish orqali yaxshi samarali natijaga erishish mumkin. Ayniqsa sug'urta mukofotlari kompaniyalar faoliyatida muhim rol uynaydi. Jumladan, 2000-yildan, 2004-yilgacha majburiy sug'urtaning jami sug'urta mukofotlaridagi tutgan salmog'i 3,4 baravaridan ko'proqqa kamaydi, ya'ni 2000 yildagi 28,6% dan, 2004-yilda 8,5 %ga tushdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va valyuta qudrati yuksalib borgan sari ixtiyoriy sug'urtalashning salmog'i oshib boradi va majburiy sug'urtalash mavqei pasayish hollari kuzatiladi. Hozirgi paytda O'zbekistonda majburiy sug'urtani «O'zbekinvest» eksport - import davlat aksiyadorlik milliy sug'urta kompaniyasi amalga oshirmoqda. Respublikamizda kichik va o'rta

biznesni sug'urtaviy himoya qilishni ta'minlovchi «Madad» sug'urta agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Shahar aholisining hayotini va mol mulkini sug'urtalovchi «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi hamda qishloq xo'jaligi va qishloq aholisini sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablarini «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi qondirmoqda. Respublikada bank, moliya, kredit munosabatlarini rivojlantirish va ularni kafolatini ta'minlash uchun «Ishonch» sug'urta kompaniyasi banklararo sug'urta xizmatlarini amalga oshirmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda «Umid», «Metro», «Mehr nuri», «Yo'lovchi», «Alskom», «Osio» temir yo'l sug'urta kompaniyalari, O'Z-AIG qo'shma sug'urta kompaniyasi, Toshkent sug'urta kompaniyasi hammasi bo'lib bugungi kunda respublikada 25 ta sug'urta kompaniyasi milliy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonda mavjud sug'urta bozori bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z mavqeiga ega. Bu esa quyidagilar bilan izohlanadi: avvalambor sug'urta madaniyati saviyasining yuqoriligi, sug'urtaning ko'p turlari sug'urtalanuvchilar uchun ixtiyoriyligi, sug'urtalanuvchilar uchun zarur bo'lgan javobgarlik tizimi bekami ko'st ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Sug'urta bozorini rivojlantirish uchun bozor iqtisodiyotidagi mavqegini mustahkamlash uchun O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga olgan davlat dasturi ishlab chiqilgan. Mavjud qonunlar va sug'urta to'g'risidagi normativ hujjatlarga amal qilinayotganligini nazorat qilish vazifasi sug'urta nazorati davlat bosh boshqarmasiga yuklatilgan. Bu jahon tajribasida sinalgan jarayon bo'lib, iqtisodi rivojlangan davlatlarda davlat organlari sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilib boradi. Zero bunday nazorat sug'urtalanuvchilar manfaatini bevosita himoya qiladi, sarmoyadorlar tavakkalchiligini kamaytiradi va nihoyat sug'urta mablag'larini milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sarf qilinishini ta'minlaydi hamda sug'urta bozori faoliyatida huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy asoslar yaratadi.

4.4. O‘zbekistonda sug‘urta ishini rivojlantirish istiqbollari

O‘zbekiston sug‘urta bozorida davlat sug‘urta kompaniyalari asosiy o‘rinni egallaydi. «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi respublika bozor munosabatlariga o‘tishi jarayonlarida jahon miqyosiga chiqishi, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni jahon bozorida sotilishini taminlashda o‘z xizmatini ko‘rsatib kelmoqda va shu bilan birga Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 27-noyabrdagi qaroriga asosan majburiy sug‘urta turlarini amalga oshirmoqda. Bugungi kunda «O‘zbekinvest» O‘zbekiston hududida xorijiy investorlarga taqdim etilayotgan kafolatlar tizimining asosiy elementidir. Kompaniyaning hududiy va ixtisoslashgan sho‘ba korxonalari sug‘urta bozorda biznesni taraqqiy etishining muhim omili sifatida harakat olib bormoqda. Sho‘ba korxonalar respublikamizning barcha viloyatlarida mavjuddir. Kompaniya‘ning qo‘shma va ixtisoslashgan sho‘ba korxonalari bo‘lib bo‘lar:

1. «O‘zbekinvest interneshnl» qo‘shma sug‘urta kompaniyasi (Angliya).

2. «O‘zbekinvest eksinform» marketing agentligi.

3. «O‘zbekinvest assistans» servis agentligi.

4. «O‘zbekinvest sarmoyalari» investitsion kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

«O‘zbekinvest» eksport import milliy sug‘urta kompaniyasi eksport amallarini moliyalashtiruvchi tijorat banklarini rag‘batlantirishning samarali shartlarini yaratish maqsadida respublikada sinditsir zayomlarini taqdim etish tajribasini joriy qilish, shu jumladan banklar tomonidan siyosiy va tijorat qaltisliklar sug‘urtasini qoplash, eksportni kreditlash, loyihalarni birgalikda moliyalashtirish sharti bilan kredit liniyalarini ochish tashabbusi bilan chiqdi.

Respublikamizda «O‘zagrosug‘urta» davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qishloq xo‘jaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va mahsulotlarini

sug'urta yo'li bilan himoya qilish, banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatlarini taqdim etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yyetishtirish uchun beriladigan avans mablag'larini qaytarishni sug'urtaviy kafolatlash, jismoniy shaxslarning hayoti va sog'lig'i, mulkini sug'urtaviy himoyalashdan iboratdir. Bundan tashqari kompaniya o'z mijozlarini ogohlantirish vazifasini bajarib, sug'urta obyektlarini zararlanish va nobud bo'lishdan asrash tadbirlarini amalga oshiradi. O'z mablag'larini investitsiya faoliyatining muhim tarmoqlariga joylashtiradi hamda kredit faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekistonda «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi shahar hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga quyidagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi: a) Axoli hayoti, salomatligi va mol -mulkini sug'urta qilish. b) Korxonalar mol-mulkini sug'urta qilish. v) Yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy va tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bilan shug'ullanadi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan «Madad» sug'urta agentligi ixtisoslashgan sug'urta tashkiloti bo'lib, asosiy maqsadi xususiy tartibda ish olib boruvchi kichik va xususiy biznesni qo'llab quvvatlashdan, tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish bilan aloqador va sug'urta xizmatlarining boshqa xillarini amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimizda bozor munosabatlari sharoitida sug'urta tizimini rivojlantirishga bo'lgan talab oshib boradi, chunki aholining mulkdor sinflari ko'payib bu mulk egalari o'zlarining mulklarini sug'urtalab qo'yadilar va o'z hayotlarini sug'urtalashni afzal deb biladilar. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari sug'urtalashni yangi turlarini va sug'urta mahsulotini zamonaviy xillarini mijozlarga taklif qilish orqali sug'urta mahsulotiga bo'lgan talabni shakllantiradilar va uni qondirishga muayassar ulushlari mumkin. Sug'urta tizimini rivojlantirishda kadrlar muhim rol o'ynaydi. Afsuski hozirgi kunda O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarida ishlayotgan

xodimlarning atigi 2% sug'urtachi degan diploiga egadirlar. Qolganlari, ya'ni ishlayotganlarning 98 % u yoki bu sohani mutaxassisi bo'lib, hayotiy zaruriyat yuzasidan sug'urta sohasida ishlashga majbur bo'lmoqdalar. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urtachi bo'lish uchun avvalo, sug'urta litseysi ma'lumotini olish, sug'urta kollejini tugatish, sug'urta bakalavri hamda sug'urtamagistri diplomlarini olgan mutaxassis professional sug'urtachi mutaxassisi hisoblanadi va bunday kadrlar o'z kompaniyalarining dunyoning turli mamlakatlaridagi filiallarida bemalol faoliyat ko'rsata oladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda aholini sug'urta bo'yicha axborotlar bilan ta'minlanganligi nihoyatda yuqori bo'lib, ular o'z uylaridan turib kompyuter yordamida internet orqali o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olish imkoniyati bor.

Qisqacha xulosalar

Sug'urta bizning respublikamizda rus kapitalistlari tomonidan inqilobgacha jamiyatlar va keyinchalik sug'urta tashkilotlari shaklida barpo etildi. Mustaqillikka erishilgandan keyin sug'urta tizimi qaytadan tashkil etildi va dastlabki «Sug'urta to'qrisida»gi Qonun 1993-yil 6-mayda qabul qilindi.

O'zbekistonda milliy sug'urta bozori vujudga keldi. Uning a'zolari respublikada tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari qisoblanadi. Mamlakatimizda sug'urtaning zamonaviy turlari rivojlanib bormoqda. Jumladan mulkiy va shaxsiy sug'urta hamda qayta sug'urtalash kabilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Respublikada nechta sug'urta kompaniyasi mavjud?
2. «Madad» sug'urta agentligi qachon tashkil topgan?
3. «Kafolat» sug'urta kompaniyasi.
4. «Ishonch» sug'urta kompaniyasi.
5. Respublikada qo'shma kompaniyalari bormi?

6. «O‘zagrosug‘urta» ning vazifalari.
7. Sug‘urtalovchi kim?
8. Sug‘urtalanuvchi kim?
9. Sug‘urta obyekti.
10. Sug‘urta subyekti.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонуни. –Т.: // «Халқ сўзи», 2002.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 413-сонли Қарори. –Т.: 2002.
3. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. –Бухоро.
4. Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Ўзбекистонда шахсий суғуртанинг ҳозирги аҳволи. –Бухоро: 2004.

Veb-sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasi.
2. www.agros.uz
e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.
3. www.unik.gov.uz
e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

V BOB

SUG'URTA ISHINING KLASSIFIKATSIYASI.

5.1. Sug'urta ishida klassifikatsiya tushunchasi

Jahon tajribasidan ma'lumki faoliyati ko'p tarmoqli bo'lgan sug'urtaninig tashkil etishda bir necha o'nlab sug'urta tashkilotlari eshtirok etadilar, o'z navbatida ular minglab sug'urtalanuvchi jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatib keladilar sug'urta statistikasi shuni ko'rsatadiki jumladan davlat aksiyadorlik sug'urtasi yo'li bilan sug'urtani 35 xili mavjuddir. Bularning obyekti, subyekti mavjud o'z navbatida sug'urta ishini boshqarish sug'urtani o'xshash turlarini guruhlashtirish birlashtirish tarmoqlarga bo'limlarga ajratishni zarur qilib quyadi. Mamodo sug'urta turlari ma'lum tartib qoida bilan biri ikkinchisi bilan ajratilmasa boshqarish qiyinlashadi va xatoliklar vujudga keladi. Sug'urtani xususiyatlarini hisobga olib hududlar bo'yicha tarmoq bo'limlariga ajratish mumkin. Ma'lumki sug'urta kompaniyalari o'z zimmasiga yuz milliardlab so'mni tashkil qilgan javobgarlikni olgan bo'ladi. Demak ma'lum sug'urta xillarni xususiyatini hisobga olib sug'urta faoliyatini quyidagi yo'nalishda turkumlash mumkin:

1. Mamlakatning ichki holati va tashqi munosabatlarini hisobga olib hududlar bo'yicha turkumlash, 2. Davlat hamda xususiy kompaniyalar bo'yicha turkumlash, 3. Ayrim tarmoqlar bo'yicha sug'urtalash, 4. Xavf-xatar turkumlari bo'yicha turkumlash, 5. Mavjud majburiy ixtiyoriy sug'urta bo'yicha turkumlash. Agar hududiy sug'urtalashda davlatning o'z territoriyasida va tashqi iqtisodiy munosabatlarda olib borayotgan ishlari ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan sug'urta sohasida hamkorlik qilish, ya'ni eksport import investitsiyalar diplomatiya xodimlarini sug'urtalashni davlat va xususiy sug'urta kompaniyalari amalaga oshiradi. O'zbekistonda bunday faoliyatni «O'zbekinvest» amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat ko'rsatadigan sug'urta kompaniyasi «Intertrans» deyiladi. Davlat aksiyadorlik sug'urta

tashkilotlari ham bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Tarmoqlar bo'yicha sug'urtalash asosan mulk sug'urtasi, shaxsiy sug'urtasi, javobgarlik sug'urtasi, tadbirkorlik va tavakkalchilik xavf-xatarlari sug'urtasi. Mulk sug'urtasi tarmoqlarga, bo'limlarga bo'linishi mumkin. Jumladan qishloq xo'jaligi bo'yicha fermer xo'jaliklari va xususiy mulkdorlar. Sanoat korxonalari hamda ijaraga berilgan korxonalar, qo'shma korxonalar, tadbirkorlar mol-mulklari ham sug'urtaga tortiladi. Mulk sug'urtasi turlariga imoratlarni, chorva mollari, uy-joy, transport vositalari, qishloq xujaligi xosili va mahsulotlarni kiritish mumkin. Shaxsiy sug'urtada asosan hayot sug'urtasi baxtsiz hodisalardan qilinadigan sug'urtadir. Hayot sug'urtasi hayotni aralash sug'urtalash, bolalar sug'urtasi bo'lishi mumkin. Baxtsiz hodisalar bo'yicha esa yo'lovchilarni, maktab o'quvchilarni, ishchi va xizmatchilarni korxonalar hisobidan sug'urtalash. Javobgarlik sug'urtasi bu transport vositalaridan foydalanishda uchuinchi shaxsga yetkazilgan zararni qoplash ko'zda tutiladi. Tadbirkorlik bo'yicha xavflarni sug'urtalashda tadbirkorlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan sug'urtalash. Masalan, korxonalar, savdo tashkiloti, ishlab chiqarish jarayonida bekor turishlar, yangi texnika va texnologiyani joriy qilish natijasida ko'riladigan vaqtinchalik zararlarni e'tiborga olinadi.

5.2. Shaxsiy sug'urtaning turlari

Shaxsiy sug'urta inson hayotiga, mehnat qobiliyatiga va sog'lig'iga zarar yetganda turli tavakkalliklardan himoya qilish shakli hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta shartnomasi fuqarolik-huquqiy bitimi bo'lib, sug'urtachi sug'urta badallarini undirib olish, sug'urta hodisasi yuz berganda zararni qoplash yoki sug'urta to'lovini qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Sug'urta summalari sug'urtalanuvchining xohishi bilan uning moddiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Shaxsiy sug'urta shartnomalari majburiy va ixtiyoriy, uzoq muddatli va qisqa muddatlarga mo'ljallab tuzilishi mumkin. Har bir sug'urta turi bo'yicha tegishli

shartnomalar tuziladi. Masalan, hayotni umrining oxirigacha bo'lgan davri sug'urtalanadi. Mulkni sug'urtalashda sug'urta shartnomalari odatda bir yilga tuziladi. Shaxsiy sug'urtada sug'urta turlariga qarab, 1, 5, 10 va inson umrining oxirigacha sug'urta shartnomalari tuzilishi mumkin. Shaxsiy sug'urtalash asosan quyidagicha turkumlanadi:

- tavakkallik darajasiga ko'ra hayotni mehnatga layoqatsizlik va tibbiy sug'urtalarga bo'linadi;

- turlari bo'yicha hayotning sug'urtasi va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;

- shartnomada ko'rsatilgan shaxslarning soniga qarab alohida va jamoa tarzida;

- sug'urta ta'minoti davriga ko'ra, qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli sug'urtalash;

- sug'urta qoplash summasini to'lash shakliga ko'ra, birdaniga to'lanadigan va renta shaklida to'lanadigan sug'urta summasini to'lash;

- sug'urta mukofotlarini to'lash shakllariga ko'ra, birdaniga mukofotning to'lanishi bilan sug'urtalash va yillik mukofotni to'lash asosida sug'urtalash.

Sug'urta shartnomasida sug'urtachi to'lashi lozim bo'lgan sug'urta qoplash summasi sug'urtalanuvchining to'laydigan sug'urta badali va boshqa kerakli ma'lumotlar aks etadi. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun birinchi navbatda ariza topshiriladi. Arizada sug'urta turi, qo'shimcha kafolatlar, sug'urta summasi, sug'urta mukofotlarini to'lab turish muddatlari ko'rsatilishi shart bo'lgan qoidalar hisoblanadi.

Xorijga safar qiluvchi shaxslarning tibbiy xarajatlarini sug'urtalash «O'zbekinvest» kompaniyasi sayoxatlarni sug'urtalash, yirik xalqaro jamiyati ELVIA (Shveytsariya) bilan birgalikda chet elga safar qiluvchi shaxslar uchun sug'urta dasturini taklif qiladi. Dastur o'z mijozlarining tibbiy xarajatlarini 50000 AQSh dollari miqdorigacha mas'uliyat doirasida qoplashni

kafolatlaydi. Bu holda sug'urtalangan shaxslarga quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi. 24 soat mobaynida tibbiy yordam bilan mijozni ta'minlash, vrachni tanlash, kasalxonaga yoki tez yordam bo'limiga yetkazish, oilaga shoshilinch xabar berish, doimiy yashaydigan yurtiga yetkazish, qoldiqlarni reportatsiya qilish, kuzatib borayotgan oila a'zolarining transport xarajatlarini qoplash, balog'at yoshiga yetmagan bolalarni kuzatib borish va h.k.

Shaxsiy sug'urtaga jahon miqyosida juda katta e'tibor berilmoqda. Shaxsiy sug'urtaning obyekti inson hisoblanadi. Inson va uning hayotini hech qanday boylikka tenglashtirib bo'lmaydi, ammo inson kutilmagan hodisalardan o'zini sug'urtalab kuysa uning hayoti, sog'lig'i yanada kafolatlangan bo'ladi va sug'urta kompaniyasi bunday mijozlarini hamma joyda moddiy jihatdan himoyalay oladi. Insonning sog'lig'i uning hayotini asrash va har bir fuqaroning uzoq umr ko'rishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Sug'urtaning boshqa turlariga qaraganda shaxsiy sug'urta insonga juda yaqin bo'lib, har bir oila a'zosining yanada farovon, tuq, baxtli hayot kechirishini ta'minlashdan iboratdir. Shaxsiy sug'urtani rivojlantirishda jamiyat va davlat ko'p vazifalarni o'z bo'yniga olishi kerak. Avvalo insonni sog'lig'ini tiklash, uni turli baxtsiz hodisalardan eson-omon olib chiqish va uni davolab kasalliklardan forig' qilish faqat sug'urta mablag'lari hisobiga amalga oshishi mumkin. Afsuski hozirgi paytda ko'p fuqarolar uzining hayotini yaxshilash, jonini turli ofatlardan asrashga unchalik e'tibor bermaydi. Sug'urta kompaniyalari aholini hayotini sug'urtalash bo'yicha ma'lumotlarni keng xalq ommasiga tarqatishi zarur deb hisoblaymiz va bu yo'l bilan shaxsiy sug'urtaga aholi tomonidan e'tibor kuchayadi.

5.3. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta

Sug'urta majburiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Ma'lumki, majburiy sug'urta davlat tomonidan bevosita majburiy ravishda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug'urta esa tomonlarning, ya'ni sug'urtachi va

sug'urtalanuvchi o'rtasida ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bu amallar orqali sug'urtalanuvchilarning manfaatlari to'liq kafolatlanadi. Majburiy sug'urta davlat tomonidan quyidagilarni, ya'ni davlatga tegishli bo'lgan barcha obyektlar, banklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar, talabalar ham majburiy sug'urta qilinadilar. Ixtiyoriy sug'urtada esa, aholining mol-mulki, hayoti, ishga kobililiyatligi, sog'lig'i, uy-xovlilari, dachalari va hokazolar sug'urta qilinishi mumkin. Majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Yo'lovchilarni majburiy sug'urtalash bundan mustasno bo'lib bu sug'urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o'z hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar ular sug'urtalanishga sabab bo'ladigan xavflar va sug'urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Majburiy davlat sug'urtasi fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida qonunda hayot, sog'liq va mol-mulkining majburiy davlat sug'urtasi bilan belgilab qo'yilishi mumkin. Majburiy davlat sug'urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar amalga oshiriladi. Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalavchilar) tomonidan amalga oshiriladi. Majburiy sug'urta to'g'risidagi qoidalarni buzish oqibatlarini, qonun bo'yicha foydasiga majburiy sug'urta amalga oshirilishi lozim bo'lgan shaxs agar sug'urta amalga oshirilmaganligi unga ma'lum bo'lsa, sug'urta qildiruvchi sifatida zimmasiga sug'urtalash majburiyati yuklangan shaxs uni amalga oshirishni sud tartibida talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi sifatida sug'urtalash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs uni amalga oshirmagan bo'lsa, yoki sug'urta shartnomasini naf oluvchining ahvolini qonunda belgilangan shartlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarda tuzgan bo'lsa u sug'urta hodisasi yuz berganda basharti tegishlicha sug'urtalangan taqdirda sug'urta to'voni to'lashga asos bo'lishi kerak bo'lgan shartlarda javobgar bo'ladi.

Sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta

tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta qilish (majburiy sug'urta) majburiyati qonun bilan yuklatilgan hollarda sug'urta ushbu qonuning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug'urtada sug'urta qiluvchi tomonlarini kelishuvi va sug'urta haqi kelishuv asosida amalga oshiriladi chunki sug'urtani ixtiyoriy shakli shartnomaga asoslanadi. Ixtiyoriy sug'urtada sug'urta badallari to'lov muddati o'tib ketishi sug'urta munosabatlarining to'xtatishga sabab bo'ladi (aniq imtiyozlar tufayli sug'urta munosabatlari belgilangan muddatlargacha davom etadigan hollar bundan mustasno). Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta bozorida turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari o'z mahsulotlarini taklif qilish va sug'urta xizmatlarini mijozlarga sifatli ko'rsatish rivojlanib boradi. Bu esa ixtiyoriy sug'urtani jamiyat miqyosida rivojlanishiga olib keladi. Xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajriba shundan dalolat bermoqdaki, mamlakat rivojlanib borgan sari aholining daromadlari yuksalib boradi, uning farovonligi oshadi va o'z navbatida majburiy sug'urtalash qisqarib, uning o'rniga ixtiyoriy sug'urtalash jamiyatda o'z o'rnini egallaydi.

Qisqacha xulosalar

Sug'urta ishi tizim sifatida o'zining tarkibiga ega bo'lib, asosan asrlar davomida takomillashib yangi turlari kashf etib kelingan. Bozor sharoitida sug'urtaga bo'lgan talabning ortib borishi, bu mulk egalarida paydo bo'lib, tadbirkor o'zining mulkini turli voqea-hodisalardan sug'urtalab qo'yadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida aholini ishsizlikdan sug'urtalash, fuqarolarning hayotini sug'urtalashga talab oshib borayotganligi tabiiy holdir. Sug'urta tizimida mulkiy sug'urtaning roli oshib borayotganligi bu mamlakatda mulkdorlar sinfining ko'payib borayotganligidan dalolat beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urta klassifikatsiyasi nima?
2. Hududlar bo'yicha klassifikatsiyalash.
3. Davlat tashkilotlari bo'yicha klassifikatsiyalash.
4. Majburiy sug'urta nima?
5. Ixtiyoriy sug'urta nima?
6. Xususiy sug'urta kompaniyasi.
7. Ijtimoiy sug'urta.
8. Shaxsiy sug'urta.
9. Mulkiy sug'urta.
10. Xalqaro sug'urta.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Суғурта бозорини янада эркинлаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. –Т.: // «Халқ сўзи», 2002.

2.. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. –Бухоро.

3. Фуломов С.С, Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. –Бухоро: 2004.

4. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Мулкий ва шахсий суғурта. –Т.: ТДИУ, 2003.

Veb-sayt va elektron pochталar

1. www.kafolatdask.uz

e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz

e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz

e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.

VI BOB

JAVOBGARLIK SUG'URTASI

6.1 Javobgarlik sug'urtasi klasslari va mohiyati

Javobgarlik sug'urtasi sug'urta tizimida alohida sug'urta yo'nalishi bo'lib javobgarlik sug'urtasida sug'urtachi sug'urtalashni belgilangan qonun asosida va shartnoma tuzish bilan amalga oshiradi. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida» gi 2002 yil yanvardagi Farmoniga asosan hamda 2002 yil 27 noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'grisida» gi qabul qilingan qarorida, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomga 1-ilova qismida sug'urta faoliyati klassifikatori berilgan.

Bu klassifikatorida hayot va annuitetlar, nikox va tugilish, hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish, umumiy sug'urta tarmogida baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urta qilish, kasalliklardan ehtiyoti shart sug'urta qilish, yer usti transport vositalarini sug'urta qilish, harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish, aviatsiya sug'urtasi, dengiz sug'urtasi, yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish, mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish, mol-mulkni zarardan sug'urta qilish, avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish, dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish, umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, kreditlarni sug'urta qilish, kafillikni kafolatlarni sug'urta qilish, boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish, huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish va h.k.

«Sug'urta faoliyati klassifikatori»da javobgarlik sug'urtasi bo'yicha to'rtta klass kiritilgan bo'lib, bo'lar:

1) Klass - avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, ya'ni yer usti transportvositalari va boshqa uziyurar mashinalar va

mexanizmlardan foydalanish oqibatida tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi. Uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

2) Klass -aviatsiya sug'urta doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish, ya'ni dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi. Uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

3) Klass- dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish, ya'ni dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida dengiz tashuvchisining javobgarligi ham hujumlaga kiradi. Uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

4) Klass -umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, ya'ni 10,11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami.

6.2 Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash

Kasbiy javobgarlikni sug'urtalashning quyidagi turlari mavjud:

1. Notariuslar kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
2. Baxolovchilar kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
3. Bojxona brokerlari kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
4. Bojxona yuk tashuvchilari kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
5. Tibbiy xodimlar kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
6. Huquqshunos-advokatlarning kasbiy javobgarligini sug'urtalash;
7. Auditorlar kasbiy javobgarligini sug'urtalash kabilar.

Xususiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi notariuslar yo'l qo'yan kasbiy kamchilik va xatolik uchinchi shaxsning iqtisodiy manfaatlariga

putur yetkazishi mumkin. Bunda birinchi shaxs sug'urta tashkiloti, ikkinchi shaxs notarius, uchinchi shaxs yuridik va jismoniy shaxs bo'ladi. Sug'urta obyektini notarius tomonidan uchinchi shaxsga yetkazilgan moddiy zarar hisoblanadi. Ushbu sug'urta shartnomasini davlat sug'urta kompaniyasi amalga oshirganda sug'urta badali, agar sug'urta summasi eng kam ish haqining 100 barobaridan 200 barobarigacha miqdorda bo'lsa, badal 0.5 foiz, undan yuqori bo'lsa 1 foiz, agar 500 barobar va undan yuqori bo'lsa 1.5 foiz sug'urta badali hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi 1 yilga tuziladi. Ko'rsatilgan muddat davomida sug'urta hodisasi yuz berib, sud qarori asosida sug'urtalanuvchining javobgarligi aniqlansa sug'urta tashkiloti ko'zda tutilgan qoplamaning to'lab beradi. Audit tekshiruvi xo'jalik subyektlari moliyaviy va boshqa hisobotlarning haqqoniyligini, ularning yuridik qonunlarga javob berish bermasligini mustaqil tekshirishdan iboratdir. Auditor o'z faoliyatida xatoliklarga yo'l qo'yib tekshirilayotgan korxonaning manfaatlariga putur yetkazishi mumkin. Shu munosabat bilan auditor javobgarligi yuzaga keladi va bu javobgarlikni sug'urtalashga ehtiyoj seziladi. Sug'urtalash uchun esa har bir korxonani auditorlik tekshiruvidan o'tkazishni alohida sug'urta shartnomasi bilan sug'urtalash yoki ko'pi bilan 1 yillik davrdagi barcha tekshiruvlarni bir shartnoma bilan sug'urtalash mumkin. Sug'urtaning tarif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan yillik 3-5 foizni tashkil etadi. Maxsus vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan audit qilingan korxonaga solingan jarima yoki boshqa sanksiyalar sug'urta hodisasi hisoblanadi. Bunday holatda sug'urta kompaniyasi solingan jarima yoki sanksiya miqdoridagi zararni korxonaga to'lab beradi.

6.3. Transport vositalarining javobgarlik sug'urtasi

Turli xildagi transport vositalarining yildan-yilga ko'payib borayotganligi va natijada yo'l transport hodisalarining ko'payib borayotganligi transport egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Ko'pgina chet

mamlakatlarda bu sug'urta turi majburiy harakterga ega. Bizda esa bu sug'urta turi hozircha ixtiyoriy sug'urta hisoblanadi. Bu sug'urta turida sug'urta tashkiloti yo'l-transport hodisasi oqibatida uchinchi shaxsga yetkazilgan zararni qoplab berishni o'z bo'yniga oladi. Bunda sug'urta hodisasi bo'lib o'lim yoki boshqa tan jarohatlari hamda transport vositasiga yetkazilgan zarar hisoblanadi. Sug'urta qoplamasi oldindan belgilangan sug'urta summasi miqoridan oshmagan holda to'lanadi, bu miqdor «sug'urtachining javobgarlik limiti» deb ataladi. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasining miqdoridan, transport dvigatelining hajmi va bundan tashqari o'rindiklar soni, yuk ko'tarish quvvatidan kelib chiqib belgilanadi. Yuz bergan sug'urta hodisasi, agar haydovchi tomonidan ataylab amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta qoplamasi to'lashdan ozod etiladi.

Transport yuklari bo'yicha javobgarlik sug'urtasining quyidagi turlari mavjud:

1. Barçha qaltisliklar bo'yicha javobgarlik.
2. Xususiy avariya bo'yicha javobgarlik.
3. Faqat halokat hodisalari bo'yicha javobgarlik.
4. Xalqaro SMYA konvensiyasi shartlari asosida xalqaro yuk tashuvchilarning javobgarligini sug'urtalash.
5. Xalqaro ekspeditorlarning GIATA tizimi bo'yicha javobgarligini sug'urtalash.
6. Yuk tashuvchilarning bojxona organlari oldidagi mas'uliyatini sug'urtalash.

Transport sug'urtasining barcha tavakkalchiliklardan sug'urta turi shartlari juda keng bo'lib shunga qaramasdan hamma tavakkalchiliklarni o'z ichiga olmaydi. Harbiy harakatlar, qaroqchilar hujumi, konfiskatsiya, arest yoki davlat tomomidan yo'q qilish kabi tavakkalliklarning zararlari qoplanmaydi. Bu tavakkalchiliklar alohida qo'shimcha to'lov evaziga sug'urtalanishi mumkin. Radiatsiya, ataylab yoki ehtiyotsizlik

tufayli sug'urtalanuvchi tomonidan keltirilgan zarar, yuk tashish qoidalarini buzish, sug'urtachini ogohlantirmasdan ortilgan portlovchi moddalarning portlashi, o'rama buzilmagan holda yukning kam chiqishi, har xil hasharotlarning keltirgan zarari, yukni vaqtida yetkazmaslik kabi tavakkalchiliklar sug'urtalanmaydi. Avariyaalarning ma'lum turlari bo'yicha javobgarlik sug'urtasi shartlari barcha tavakkalliklardan sug'urta shartlariga nisbatan tavakkalliklarning aniq soni mavjudligi bilan farq qiladi, ya'ni sug'urtachi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan aniq tavakkalliklar uchungina javobgar bo'ladi, bunda o'z-o'zidan sug'urtalanuvchining javobgarligi kamayadi. To'ntarilishlardan tashqari shikastlanishlar uchun javobgarliksiz sug'urta shartlari sug'urta hodisalarining ro'yxati bo'yicha ular yuz berganda zararlar qoplanishi kerak, xuddi avariyaalarning ma'lum turlari bo'yicha javobgarlik sug'urtasi kabi. Farqi shundaki, ikkinchi holatda sug'urtachi faqatgina yukning hammasi yoki bir qismining to'liq yo'qotilishi holatlaridagina javobgar bo'ladi, yuk shikastlanganda esa faqatgina transport vositasining avariya holatlarida javobgar bo'ladi. Yuqoridagi uch holatda ham sug'urtachi zararlar va umumiy avariya xarajatlarini, yukni qutqarish xarajatlarini qoplaydi. Umumiy avariya zararlar sifatida shunday zararlar tushiniladiki, bunday zararlar transportga, fraxtga va tashilayotgan yukka nisbatan bo'ladigan xavflardan saqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladi. Shunday qilib zarar umumiy avariya sifatida qabul qilinishi uchun to'rtta shart bo'lishi kerak, bo'lar oldindan ko'ra bilish, aqlan ish tutish, favqulotda holat va harakat maqsadi, yukni, transportni va fraxtni qutqarish. Bulardan birortasi bo'lmasa bu umumiy avariya emas, balki avariya'ning ma'lum turi bo'ladi.

6.4. Xavf-xatari yuqori bo'lgan korxonalarda fuqarolik javobgarligini sug'urtalash

Ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat ko'rsatishi jarayonida korxonalar asosiy zveno hisoblanadi. Shunday ishlab

chiqarish korxonalari borki, ularda ishlatilayotgan mashina-mexanizmlar, yuqori kuchdagi elektroenergiya, atom energiyasi, portlovchi moddalar, zaxarli moddalar atrof muhitga, aholi va boshqa mulklarga yo'l qo'yilgan e'tiborsizlik yoki boshqa sabablar tufayli katta zararlar yetkazishi mumkin. Boshqa shaxsga yetkazilgan zarar fuqarolik huquqi va majburiyatlarining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Moddiy yoki jismoniy zarar ko'rgan shaxs ushbu zarar etishiga sababchi bo'lgan shaxsdan o'z huquqini talab qilishga haqli va zarar yetkazgan shaxs esa javobgar bo'lishga majburdir. Bu esa amal qiluvchi fuqarolik qonunlariga ko'ra yetkazilgan moddiy va boshqa zararni qoplab berish majburiyatini keltirib chiqaradi. Bunday holatda sug'urtachining yordami zarur bo'ladi. Bunday holatlar bo'yicha sug'urta shartnomasi javobgarning ko'radigan moliyaviy zararini qoplab berish kafilligini olish maqsadida tuziladi. Bu shartnomaning o'ziga xosligi shundaki, shartnoma uchinchi shaxs bo'lgan jabrlanuvchi foydasiga tuziladi. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta shartnomasida sug'urtachi tomonidan olingan javobgarliklar x.ajmi, tavakkalchiliklar soni, sug'urta javobgarligi limiti va sug'urta muddatiga bog'liq bo'ladi. Respublika tomonidan ma'lum makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, investitsion iqlimning yaxshilanishi xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonni ishonchli qarz oluvchi va hamkor deb tan olinishiga sezilarli ta'sir qildi. Xorijiy kreditlarning qaytarilishi va saqlanishini davlat tomonidan qonuniy kafolatlarini va «O'zbekinvest» eksport-import sug'urta kompaniyasi xizmatlari vositasida moliyaviy kafolatlanishi tadbirkorlarning faolligini kuchaytirishga olib keldi. Texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar eksportini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar ajratuvchi O'zbekiston respublikasi rezidentlari bo'lgan tijorat banklariga eksport kreditlarini sug'urta qilish xizmatlarini ham ushbu kompaniya amalga oshirmoqda.

Qisqacha xulosalar

Javobgarlik sug'urtasi respublikamizda qonun talabi asosida rivojlantirilmoqda. Sug'urta tizimida javobgarlik sug'urtasi bo'yicha 4 ta klass kiritilgan bo'lib, 10-klass avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish, 11-klass aviatsiya sug'urtasi, 12-klass dengiz sug'urtasi, 13-klass umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish klasslari belgilangan.

Barcha qaltisliklar bo'yicha javobgarlik, xususiy avariya bo'yicha javobgarlik, faqat hlokat hdisalari bo'yicha javobgarlik, yuk tashuvchilarning javobgarligi bo'yicha sug'urtalash turlari amalga oshmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Avtofuqarolik javobgarligi.
2. Aviatsiya sug'urtasi.
3. Dengiz sug'urtasi.
4. Sug'urta klasslari nima?
5. 1-klass bo'yicha sug'urtalash.
6. 2-klass bo'yicha sug'urtalash.
7. 3-klass bo'yicha sug'urtalash.
8. 4-klass bo'yicha sug'urtalash.
9. Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash.
10. Tibbiy javobgarlikni sug'urtalash.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси»даги 413-сонли Қарори. —Т.: 2002.

2. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. —Бухоро.

3. Фуломов С.С., Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. —Бухоро: 2004.

4. Ўзбекистонда суғурта бозори таҳлили. –Т.: 2005.

Veb - sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz
e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz
e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

VII BOB

SUG'URTA ISHIDA MARKETING

7.1 .Sug'urtada marketing tushunchasi

Marketing sug'urta kompaniyalarida tijorat faoliyatini boshqarish va sug'urta xizmatlari bozorini o'rganish uslubi sifatida paydo bo'ldi. Chet el sug'urta kompaniyalari bu usulni 60-yillarning boshidan boshlab keng qo'llab kelmoqdalar. Sug'urta ishida marketing sug'urta ishlarining uslubi va strategiyasini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Sug'urta marketingi deganda, sug'urta bozorining ahvoli, istiqbolini o'rganish asosida sug'urtaning yangi shakllarini yaratish va ishga solish, mavjud sug'urta xillariga bo'lgan talab darajasini aniqlash orqali sug'urta faoliyatini tashkil qilish tushuniladi. Sug'urta xizmatlarining hozirgi holatiga baho berishda avvalo o'sha sug'urta bozorida qancha sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatayotganligi, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar nimalardan iborat ekanligiga e'tibor berish kerak. Sug'urtaning kelajak istiqbolini belgilashda, sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatadigan hududdagi aholining turli tabaqalarining iqtisodiy qiziqishlari va manfaatlarini hisobga olish kerak. Sug'urta marketingi amaliyotda quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- sug'urta bozoridagi talab va taklifni, bozor konyukturasini chuqur o'rganish;
- innovatsiyalarni amalga oshirish;
- sug'urta kompaniyasining raqobatbardoshligini ta'minlash va hokazo.

Marketing yordamida sug'urta kompaniyalarini bozor konyukturasiga moslashtirish, shu bilan birga sug'urta xizmatiga mijozlarning qiziqishini uyg'otish yoki talabni qondirishga erishish mumkin. Sug'urta bozorida marketing orqali talabni muntazam ravishda nazorat qilish, ya'ni imkoniyatlar yuzaga kelganda strategiyani qaytadan ko'rib chiqish va raqobat kurashida, yangi taktikani qo'llash orqali raqobatdoshlarni yutib chiqish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalarining erishgan yutuqlarini iqtisodchilar qo'shimcha marketing va reklama xizmatlaridan foydalanganliklari bilan bog'laydilar.

Marketingni yo'lga qo'yish uchun yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urtalanuvchi bo'lish imkoniyatlari bilan tanishib chiqish, sug'urta bozoridagi ahvolni tahlil qilish, sug'urta xizmati tashkil qilinayotgan hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish rejalarini o'rganish va bu borada sug'urta ishlarini tashkil qilish istiqbollarni aniqlash talab etiladi. Sug'urta marketingning tarkibiy qismi aholini ijtimoiy jihatdan o'rganishdir, bunda har bir oilaning sug'urtadan manfaatdorligini aniqlash ko'zda tutiladi. Bundan maqsad kompaniyalardagi mavjud sug'urta turlari sistemasini optimallashtirish va talab yo'qolgan sug'urta turlarini olib tashlashdan iboratdir. Aholini ijtimoiy o'rganish yoppasiga yoki tanlanma tarzda o'tkazilishi mumkin. Tanlanma tarzda o'rganishda aholini shunday tabaqalari tanlab olinadiki, ularni o'rganish orqali oldingi natijalari qolgan boshqa aholi qatlamlari uchun ham xos bo'ladi. Tadqiqotning predmeti bo'lib sug'urta summalarining me'yori, sug'urta to'lovlarining miqdori, ularni o'lchash usul va tartiblari shartnoma muddatlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari xodimlar avtombillari, hududdagi demografik holat ijtimoiy -iqgisodiy va psixologik ahvol, oila daromadlari, bolalar soni, maktab o'quvchilari, kutilayotgan nikox to'ylari soni kabi holatlar hisobga olinadi. Sug'urta tashkilotlari amaliyotda menejmentdan va uning quyidagi tamoyillaridan foydalanadilar;

- bozor konyukturasini chuqur o'rganish :

- sug'urta bozorining segmentatsiyasi, ya'ni sug'urta turlari bo'yicha bo'limlar tashkil etish.

- sug'urtalanuvchilarning talablariga moslashish.

Marketing yordamida ma'lumotlar kartotekasi tashkil qilinadi, ma'lumotlarni turkumlash va avtomatlashtirish amalga oshiriladi. Marketing boshlang'ich tahlilda ma'lumotlarni turkumlash,

olingan manbalarning ishonchligini tekshirib ko'rish hamda ayrim guruhlar bo'yicha taqqoslash ishlari amalga oshiriladi. Yangi sug'urta mahsulotini yaratish ularni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun sug'urta tashkilotida yaxshi tashkil etilgan marketing xizmati bo'lishi juda muhimdir. Masalan, agar sug'urta kompaniyasi yangi sug'urta turini yaratishga qaror qilib, bu ishni bir guruh texnik mutaxasislarga topshirsa, ular muayyan vaqtdan keyin bu vazifani bajargandan keyin kompaniya ushbu yangi sug'urta turiga mijozlar qidira boshlasa, bunday hollarda qoida tariqasida, u muvaffaqiyatlarga erishish oldindan taxmin qilinishi ham mumkin. Chunki bunda kompaniya yangi mahsulotni ishlab chiqish chog'ida marketing xizmatidai foydalanilgan. Sug'urtaning yangi turini tayyorlash borasida ish sug'urta bozori ehtiyojlarini o'rganishdan boshlanadi. Buning uchui qoida tariqasida bozorning har bir segmenti, jumladan quyidagilar o'rganiladi:

1. Sug'urta bozoridaagi vaziyat (bozorning barqarorligi, rivojlanganlik darajasi v.x)
2. Raqobat (sug'urta bozori tarkibi ya'ni undagi muqobil kompaniyalar).
3. Iste'molchi (bozordagi iste'molchilar tarkibi).
4. Sotuvchilar (sotuv mahsulotlari sifati).

Ushbu tahlillar natijalariga asoslangan holda sug'urta kompaniyasi bozorga boshqalarnikidan farq qiladigan yangi mahsulot taklif qilish mumkin bo'ladi.

Bozorda yangi xizmati ehtiyoji paydo bo'lishi to'g'irisidagi ma'lumotlar, sug'urta kompaniyasiga bir necha yo'llar bilan kelib tushadi, ulardan quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

- o'z sotuvchilari qo'li bilan joylarda mijozlardan fikrlarini so'rab bilish;
- jamoatchilik fikrini o'rganuvchi mustaqil kompanilar taqdim etgan ma'lumotlardan foydalanish ;
- telemarketing (mustaqil telefon kompaniyasi xizmatlari)

yordamida mijozlar fikrini so‘rab bilish va boshqalar.

Bundan tashqari har bir sug‘urta kompaniyasining sug‘urta bozori hamda mijozlar ehtiyojlarini o‘rganishda qo‘llaydigan o‘z ustuvor usullari bo‘ladi. Sug‘urta kompaniyasi o‘z mijoziga nisbatan tijorat tashabbusini ko‘rsatishi kerak. Yangi sug‘urta mahsulotini yaratar ekan, kompaniya o‘zi bilan mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonunlarni bilishi, yodda tutmogi lozim. Bozor iqtisodiyoti turli mulkning shakllariga asoslangan holda rivojlanib boradi. Turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlar o‘z o‘rnida bir xil mulk shaklidagi bir soha korxonalari o‘rtasidagi raqobatning paydo bo‘lishi va kuchayishi har bir korxonalar iqtisodiyoti o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun kurash olib borishiga majbur etadi. Sug‘urta tashkilotlari o‘rtasidagi ushbu raqobat kurashi sug‘urta bozorida vujudga keladi.

7.2. Sug‘urta kompaniyalarining marketing faoliyatini tashkil qilish

Sug‘urta kompaniyalarining rahbariyati marketing tadqiqotlari yordamida kompaniyani raqobatbardoshlik darajasini ko‘tarish uchun hamma imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilish huquqiga ega. Sug‘urta kompaniyasi raqobatbardoshligi deganda sug‘urta bozorida o‘z mahsulotini sotish va xizmatlar ko‘rsatishda bozorni boshqa katnashchilari bo‘lgan kompaniyalardan ustunlikni har tomonlama ta‘minlash tushuniladi. Raqobatbardosh sug‘urta kompaniyasini o‘rganish birinchi bosqichi sug‘urta bozorida asosan mavjud yigilgan materiallarni, faktlarni tahlil etib raqobatni oshirib borayotganligini e‘tiborga olish, bunday faktorlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Sug‘urta bozorida raqobat qilayotgan sug‘urta kompaniyalarining umumiy soni ularning quvvati.

2. Sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan talabni va uning sturukturasi o‘zgarishi, baholar dinamikasi holati.

3. Sug‘urta kompaniyalarining bozorga kirishi uchun qo‘yiladigan talablar.

4. Kridet bozoridagi aralash holat.

5. Sug'urtachilar orasidagi farq va ularning strategiyasi.

6. Sug'urta bozorida raqobat motivlari va uning holati.

Sug'urta bozorida sug'urta kompaniyasi olib borilayotgan baholar siyosati bilan qiziqishi zaruriyatdir. Baxolar bo'yicha raqobatda tarif stavkasi yotadi. Shu tariflar asosida shartnomalar tuziladi. Agar tarif stavkalarini tushirish yo'li bilan sug'urta bozorida boshqa haridorlarni o'zini xizmatlariga jalb etish mumkin. Sug'urta bozorida raqobatbardosh kurashida sug'urta kompaniyasini yutib chiqishi avvalo sug'urta xizmatlarining yangi turlariga e'tibor qaratish orqali yuz beradi:

1. Sug'urta kompaniyasini bozorga chiqarayotgan sug'urta mahsulotini reklamasini kuchaytirib, unda yangi sug'urta xizmati va sotilishi mumkin bo'lgan mahsulot tizimi e'lon qilinishi kerak.

2. Muhim matbuot sohaslarida sug'urta kompaniyasi bilan yaratilgan sug'urta mahsulotini eng yangi turlarini axborot sifatida e'lon qilib uni tarqatish.

3. Sug'urta mahsulotlarini jamiyatdagi eng e'tiborli obro'li odamlar shaxslar orqali, ekspertlar orqali baholab bu fikrlarni tarqatish.

4. Sug'urtalanuvchini, mijozlarni sug'urta bozoridagi holat bilan doimo tanishtirib borish va har bir xaridorni axborotlar bilan tanishiga safarbar eta olish.

5. Sug'urtalanuvchilarni, mijozlarni yangi aniq sug'urta mahsulotlarini zamonaviy turiga qiziqishlarini ortirish orqali sug'urta mahsulotiga real mijozlar tayyorlash mumkin.

6. Sug'urta kompaniyasi taklif etayotgan yangi sug'urta mahsuloti turlarini doimiy ravishda ijobiy baholash siyosatini olib borish.

7. Sug'urta bozorida kompaniya chiqarayotgan mahsulotning eng foydali tomonlarini, targ'ib qilish orqali xaridorlar fikrini shakllantira olish.

8. Yangi sug'urta mahsulotini haridorlar tomonidan qabul qilinganligi yoki xarid qilinmaganligi sabablarini tahlil etib chora ko'rish.

Sug'urta bozorida yaxshi muvaffaqiyatga erishadigan kompaniya avvalo reklama xizmatini marketing tadqiqotlari natijalaridan foydalangan holda olib borsa yutuqqa erishadi. Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, marketologlar sug'urta kompaniyalari xodimlarini ham faoliyatlarini o'rganishi zarur va har o'tkazilgan kuzatish tadqiqot natijalari bilan sug'urta kompaniyasi ma'muriyatini tanishtirishi lozim. Kompaniya ma'muriyati marketing tadqiqotlari natijalarini hisobga olgan holda kompaniyani o'zida islohotni amalga oshirib faoliyatni aktivlashtirishga erishishi mumkin.

7.3. Sug'urta kompaniyalarida marketing xizmati

Sug'urta kompaniyalarida marketing xizmatlari va u olib boradigan tadqiqotlar bo'yicha mustaqil yo'nalishlarga ham ajratib marketing ishini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning vazifalari, quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Ichki holatni tahlil etish, bunga kompaniyaning holati, nazorat tarkibi, bozor talabidan kelib chiqib ayrim talablarni bajarish, nazoratni kuchaytirishga e'tibor qaratilishi lozim.

2. Sug'urta kompaniyasini optimal holati ayrim muhim tartibga solish faoliyatini yaxshilash jarayonlarini amalga oshirish.

3. Sug'urta kompaniyasining ichki kommunikatsiyasiga e'tibor berish «korporativ» manaviyat xodimlarini baland ruxini saqlashga harakat qilish.

4. Sug'urta kompaniyasida boshqaruvni va ijrochilarni aktivligini oshirishga alohida e'tiborini qaratish ishga mas'uliyatni oshirish.

Sug'urta kompaniyasining marketing bo'limi real mijozlarni tanlashda:

1. Real mijozlarni topganda birinchi vazifa, ular bilan kompaniya orasida shartnoma tuzish hisoblanadi.

2. Qo'shimcha material to'plash, yangi mijozlarni qidirish.

3. Sug'urta shartnomasini imzolashdan voz kechish yoki kuzatishlarni ma'lum vaqtgacha amalga oshirish.

Kompaniya marketologlari mijozlarga shunday ta'sir etishi kerakki, ular uygonsin:

1. Oila manfaatlariga borib taqaladigan va mijozni sug'urta mahsulotini sotib olishga undaydigan usul.

2. Eng yaqin kishilari orqali ta'sir etish usulidan foydalanish.

3. Qarindoshlargacha borib taqaladigan metodlarni ishlatish joizdir.

Raqobatdosh kompaniyaga sug'urta mahsulotini sotishda ularni reklama qilish harakteridagi usullar orqali ham zarba berish, jahon sug'urta bozori tajribasida mavjud:

1. Sug'urta kompaniyasini mijozlar ko'rgan zararni to'lamagan yoki shartnomani buzgan hollarni fakt keltirish.

2. Sug'urta kompaniyalarini mijozlar bilan sudlashgan va yut'uzgan vaqtlarini misol keltirish.

3. Raqobatdosh kompaniyani moliyaviy jihatdan to'lovga layoqatli emasligi va boshqa materiallarni reklama sifatida berish ehtimolga yaqindir. Sug'urta bozorida har bir sug'urta kompaniyasi ustalik bilan marketologlar yordamida aniq faktlarga asoslangan materiallardan foydalanib, xalol raqobat kurashini olib borish orqali o'zining kompaniyasini mavqeini ko'tarishga erishiladi. Har bir sug'urta kompaniyasida korxonaning marketingini yoki sug'urta marketingini qo'llashdan qanday natijalarga etishish mumkin. Avvalo korxonaning yoki kompaniyaning hisobiga kelib tushgan foydani tahlil etib, uni taqsimotiga alohida e'tibor berish joizdir:

1. Sug'urta bozorida marketingni qo'llash yordamida olingan foyda sug'urta kompaniyasini mulki bo'lib, uni har yili zahiralarga erkin ravishda o'tishini ta'minlash kerak.

2. Foydadan olingan dividendlar sug'urta kompaniyasini faoliyatiga yo'naltirishini ta'minlash zarur.

3. Foyda zahira sifatida foydalaniladi (bonus) tarzida yangi bu orqali uzoq yillar davomida (agar transportda bo'lsa) falokatsiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali hisobidan

beriladigan yengilliklar, ya'ni bunday mijozlarni 2 va 3 oyga sug'urta badali to'lashdan ozod qilish bilan rag'batlantirish yaxshi natija beradi.

Umuman kompaniyada marketing xizmati shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, undan kompaniya foyda ko'rsin va sug'urta bozorida boshqa kompaniyalar bilan raqobat kurashida engib chiqish orqali bozordagi o'z mijozlarini sonini ko'paytirishga har tomonlama erishishga muvassar bo'lsagina, marketing xizmati o'ziga sarflangan xarajatlarni qoplagan hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Sug'urta ishida marketingni qo'llash asosan sug'urta bozorini o'rganish, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni bilish, sug'urta kompaniyasining o'zini to'liq tapil etishning amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Marketing xodimlarining aktivligini oshirish qamda ularning qar bir mutaxassisining firmaga keltirgan foydasini aniqlash, to'liq faoliyat ko'rsatmayotganini yangisi bilan almashtirish jarayonini amalga oshiradi. Sug'urta bozorida sug'urta mahsulotining platini, raqobatdoshlarning imkoniyatlari va mijozlarni harid qilish imkoniyatlarini marketing yordamida aniqlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urta marketingi nima?
2. Sug'urta bozori segmentlari.
3. Sug'urtalovchi marketingi.
4. Bozor kon'yukturasi.
5. Sug'urta turlari.
6. Sug'urta kompaniyalari marketingi.
7. Sug'urta xizmatlarini o'rganish.
8. Sug'urta mahsuloti marketingi.
9. Marketing yordamida boshqarish.
10. Sug'urtalanuvchilarni o'rganish.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантириш чоратadbирлари тўғрисида»ги 413-сонли Қарори. –Т.: 2002.

2. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. –Бухоро.

3. Фуломов С.С, Боев Х.И. Суғурта иши. -Т.: ТДИУ, 2001.

4. Фуломов С.С, Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. –Бухоро: 2004.

5. Боев Х.И.. Боева Ж.Б. Суғурта бозори –Т.: ТДИУ, 2001.

Web - sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz

e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz

e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz

e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

VIII BOB

SUG'URTA ISHIDA REKLAMA

8.1. Sug'urta kompaniyalarida reklamaning roli

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda reklama ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Firmalar, sug'urta kompaniyalari o'z xizmatlarini va faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta turlarini reklama qilish orqali muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik tufayli davlat reklama ishlarini tashkil etdi va hozirgi kunda respublikamizda reklama bilan shug'ullanadigan alohida tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xorijiy mamlakatlar sug'urta ishlarini tashkil etishda reklamaning ko'proq qo'llab sug'urta xizmatlarini aholi orasida va xorijiy mamlakatlarda taklif qilib o'z mijozlarini ko'paytirishga erishmoqdalar. Umuman jahondagi rivojlangan mamlakatlarning sug'urta kompaniyalari rivojida reklama muhim vazifani bajarib kelgan. Sug'urta bozorida sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini har tomonlama mijozlarga targ'ib qilish uchun reklamaga ehtiyoj kuchayib boradi. Reklama orqali mijozlar o'zlari uchun kerakli sug'urta kompaniyasi bilan shartnoma tuzadilar. Reklama qisqa axborotlar orqali asosan dalillar bilan sug'urta xizmati shakllarini, sharoiti va sifatini aniq namoyon etib boradi. Reklama asosan turli guruhlariga mansub sug'urtalanuvchilarning manfaatini o'zida ifoda etadi, aholining so'rovlariga javob beradi, turli darajada daromadga ega bo'lgan insonlarni o'zi uchun zarur bo'lgan va moddiy jihatdan qurbi etgan xizmat turini tanlab olishlariga imkoniyat yaratib beradi. Reklama aholining tabiiy yashash sharoitini, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, hatto diniy mazhablarini hisobga olgan holda ularni turli shakldagi sug'urta xizmatlaridan o'zlariga tegishlisini aniqlab olishlariga yordam beradi. Reklamaning maqsadi shundaki, yangi xizmatlar turi bilan jahon miqyosida haridorlarni tanishtiradi, oldindan tuzilgan va amal qilib kelayotgai shartnomalarning to'liq imkoniyatlar bilan

bajarilishiga yordam beradi. Ma'lumki, reklama vositasi sifatida gazetalardan, oynomalar, radio, televideniya va diqqatni tortuvchi turli shiorlar, afisha va turli xil sur'atlardan foydalaniladi. Shu bilan birgalikda pochta orqali reklama qilish va kinoreklamadan foydalanish sug'urta xizmatlari realizatsiyasiga katta yordam beradi. Asosiy reklama vositasi ommaviy axborot tarmoqlari hisoblanadi. Sug'urta ishida reklamaga qo'yiladigan talab shundaki, sug'urta bo'yicha beriladigan reklama haqiqatga yaqin bo'lishi, sug'urta kompaniyasi ko'rsatadigan xizmat turlarini aholiga to'g'ri va ishchanlik bilan yetkazish lozim hisoblanadi. Sug'urta faoliyatini aks ettiruvchi reklama oddiy, ishonarli, ma'lumot va raqamlar bilan isbotlangan bo'lib, mantiqan har bir bosqich, bir-birini tuldırishi lozim. E'lon qilinadigan reklamalar aholining turli ijtimoiy guruhlariga hamda turli yoshdagi mijozlarga, har xil kasbdagi kishilarga mo'ljallangan bo'lib, aholining manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Sug'urta ishida reklama har bir kompaniyaning faoliyatida oldindan rejalashtirilgan sug'urta kompaniyasining ommaviy tashkiliy vazifasi hisoblanadi. Sug'urta reklamasi turli mintaq va shaharlarda yashovchi aholining sug'urta xizmatiga bo'lgan talabini shakllantira boradi. Reklama berilayotganda sug'urta kompaniyalari aholining turli darajada daromad oluvchi katlamlari sug'urta xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini hisobga olgan bo'lishi lozim, reklama ko'pincha sug'urta xizmatiga bo'lgan talabning ko'payishiga olib keladi.

8.2. Sug'urta xizmatlarini reklama qilish

Sug'urta xizmatini reklama qilish orqali aholi sug'urta turlari bo'yicha axborotga ega bo'ladi va mijozlar sug'urta shartnomasi tuzishga jalb etiladi. Sug'urta reklamasi samarali bo'liishi uchun sug'urta kompaniyasining emblemasi firma belgisi sug'urtaning turi aniq qilib berilgan taqdirda mijozlarning bu kompaniya to'g'risidagi tasavvuri to'liq va ishonchli bo'lib, aynan shu

sug'urta kompaniyasidan sug'urta polisini sotib olishga ishonch tuguladi.

Reklama tomoshabiniga shunday fikrlarni berish lozimki, uni ko'rgan va eshitgan kishi shu reklama haqida o'ylab, o'ziga foyda keltirishi mumkinligiga ishonsin. Beriladigan reklama televideniya qiziqarli filmlar va muhim xabarlar berilayotgan paytda shularning orasida shularning bir necha daqiqada tomoshabinlarga ko'rsatilsa, ularniig xotirasida uzoq saqlanadi va bunday reklama fuqarolarni sug'urta kompaniyalarini murojaat qilishni undaydi. Reklama matnlari bir necha turda e'lon qilinadi. Ular orasida axborot matnlari juda muhim. Axborot matnlari sug'urta xizmatida va turlari bo'yicha o'zgarishlar bo'lganda e'lon qilinadi. Bunday matn oddiy, ishonarli dalillar va raqamlarga asoslangan bo'lishi kerak. Sug'urta reklamasida eslatuvchi matnlar ham bo'lib, u orqali tugash muddati yaqinlashib kelayotgan sug'urta shartnomalarini qaytadan rasmiylashtirish haqida eslatma beriladi. Xotirada saqlab qolishga safarbar etuvchi bunday matnda sug'urtaning yangi turlari katta harflar bilan alohida ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari sug'urta reklamasida ishonarli matn ham mavjud bo'lib, uni e'lon qilish alohida urgu bilan beriladi va reklama qilinayotgan sug'urta turi mijozlarning diqqatini o'ziga tortadi.

Bizningcha sug'urta reklamasini tayyorlashda quyidagi elementlarga e'tibor berish lozim:

- reklamani rang-barang bo'lishi.
- sug'urtalanuvchilarga shaxsan murojaat etish tarzida.
- axborot manbalarini qidirishga e'tiborini qaratish.
- sug'urta xizmatini jonli qilib tasvirlash, reklamaning davomiyligini ta'milash.
- mijozlarning sug'urta xizmatiga bo'lgan qiziqishini oshirib borish.
- mijozlarni sug'urta xizmat turlariga yo'naltira olishi va hokazolar aks etishi kerak.

8.3 Sug'urta ishida reklamadan foydalanish

Sug'urta ishida reklamadan foydalanish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

-ko'p nusxada chiqariladigan ro'znoma, oynoma va boshqa chop etiladigan axborotnomalarda to'g'ridan-to'g'ri reklama berib borish:

- xatlar, otkritkalar, konvert va turli jildlar, varaqlar, risolalar va kataloglar yordamida sug'urta reklamasini berib borish.

-reklama qilishda suvenirilar, kukrak ruchkalar, kuldonlar, firmaning emblemalari znachoklar kurinishda sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchi fuqarolarga bepul berilishi lozim

-reklamani turli afishalar, shiorlar, reklama shitlari orqali yo'llarda (temir yo'l, havo yo'llari, suv transporti) va jamoatchilik joylarida amalga oshirilishi mumkin:

-transport orqali reklamalar berib borish metro vagonlari avtobus, trolleybus va tramvay bekatlarida va bu transportlarning salonlarida sug'urtaga tegishli bo'lgan e'lonlarni berib borish:

-reklamani radio, taksi, marshrut taksilari, maxsus yuk tashuvchi transport vositalaridan foydalangan holda amalga oshirish:

-televideniada mashxur artistlar, futbolchilar va taniqli shaxslar va diktorlarning chiqishlari orqali sug'urta reklamasini berib borish:

-maxsus reklama kontsertlari va tanlovlari, ko'rik va viktorinalar orqali sug'urta turlarini reklama qilishga erishish mumkin.

Sug'urta mavzulari bo'yicha beriladigan reklamalar sifati asosan berilayotgan matnlarda aniq maqsad, vazifalar bayon, etilishga, sug'urta reklamasini qaysi tilda mijozlarga yetkazilayotganligiga bog'liq. Sug'urtaning rivojiga kinofilmlar ham o'ziga xos o'rin tutadi, kino reklama o'ziga millionlab kishilarni jalb qiladi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda reklama ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Firmalar, sug'urta

kompaniyalari o'z xizmatlarini va amal qilayotgan sug'urta turlarini reklama qilishlari orqali muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqdalar. Bizning respublikamizda umuman marketing va reklama ishlari endi yo'lga qo'yilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta ishlarini tashkil etishda marketing va reklamani ko'proq qo'llash lozim, chunki sug'urta xizmatiga bo'lgan talab va taklifni, bozordagi ahvolni o'rganmasdan turib va sug'urta xizmatlari turlarini aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot qilmasdan turib sug'urta faoliyatini rivojlantirib bo'lmaydi. Sug'urta ishida marketing va reklamani yo'lga qo'yish va rivojlantirish ijobiy natijalarga olib keladi.

Qisqacha xulosalar

Sug'urtada reklamadan foydalanish sug'urta kompaniyasining mahsulotini bozorda haridorlarga, iste'molchilarga yetkazish, mijozlarni jalb etish uchun amalga oshiriladi.

Reklamani sug'urtada matbuot orqali oynomalar yordamida turli shitlardan foydalangan holda, xatlar, konvertlar, varaqalar, risolalar, katologlar orqali amalga oshirish mumkin.

Sug'urta kompaniyasining mahsulotlarini aholining turli tabaqalariga mo'ljallab, yo'naltira bilish hamda shiorlar, tarnsport vositalaridan foydalanish bilan iste'molchilarga yetkazishi kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urtada reklama.
2. Sug'urta xizmati reklamasi.
3. Sug'urta mahsulotining reklamasi.
4. Reklamanning maqsadi.
5. Reklamanning vazifalari.
6. Reklama vositalari.
7. Reklama shiorlarini tayyorlash.
9. Reklamanning natijalari.
10. Reklama xarajatlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонуни. –Т.: // «Халқ сўзи», 2002.
2. Фуломов С.С, Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. –Бухоро, 2004.
3. Боев Х.И.. Боева Ж.Б. Суғурта бозори –Т.: ТДИУ, 2001.

Veb - sayt va elektron pochталar

1. www.kafolatdask.uz
e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasi.
2. www.agros.uz
e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi.
3. www.unik.gov.uz
e - mail: overseas@unik.gov. - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

IX BOB

SUG'URTA SHARTNOMALARI

9.1. Mulkiy va shaxsiy sug'urta shartnomalari

Xorijiy mamalakatlar tajribasidan ma'lumki, shartnoma sug'urta bo'yicha yozma shaklda tuziladi va sug'urtachi, sug'urtalanuvchi tomonidan imzolanadi. Agar tomonlar bunga amal qilmasalar, unda shartnoma haqiqiy deb sanalmaydi. Ma'lumki sug'urta shartnomasi birorta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtachi imzolagan sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisini topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Demak, sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofotini to'lash yoxud sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanishi mumkin. O'z navbatida sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasining o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llashga haqli hisoblanadi. Sug'urta shartnomasining muhim shartlari masalan mulkiy sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtacha qildiruvchi bilan, sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi kerak:

1. Jumladan sug'urta obykti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida.
2. Sug'urta puli miqdori to'g'risida.
3. Sug'urta tovonini aniqlash miqdori to'g'risida.
4. Sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash miqdori to'g'risida.
5. Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'g'risida.

Agar shaxsiy sug'urta shartnomasini ko'radigan bo'lsak, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf, sug'urtalovchi, boshqa taraf, sug'urta qildiruvchi to'laydigan shartnomada shartlashilgan

haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs) ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va kutilajak zarar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug'urta shartnomasi (polisi) ning standart shaklida sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki yozma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta obyekti mavjud bo'lmasa;

- jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mol-mulk;

- shartnoma bo'yicha g'ayriqonuniy manfaat uchun sug'urtalangan bo'lsa;

- sug'urta shartnomasida yuz berishi mumkin bo'lmagan holatlar bo'lsa.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ixtiyori (sug'urta shartnomasi asosiy vazifani bajaradi, sug'urta qoplamalari faqatgina oldindan tuzilgan sug'urta shartnomalari mavjud) bo'lgandagina sug'urtalanuvchiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan fuqarolari, qonun bo'yicha mamlakat ichida va xorijda yashaydigan fuqarolarimiz ham sug'urtalanadilar. Sug'urta shartnomasiga ko'ra, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalovchi shartlashilgan sug'urta pulini oila a'zolariga, to'lanishi kerak bo'lgan davlat ijtimoiy ta'minot pulidan hamda zararni qoplash tartibida to'lanadigan

puldan qat'iy nazar to'lashi lozim. Shartnomani tuzish chog'ida sug'urta pulining miqdori sug'urtalanuvchilar bilan sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Lekin bu summa eng kam oylik ish haqining 40 baravaridan kam bo'lmashligi kerak. Sug'urta shartnomasi quyidagi muddatlarda kuchga kiradi:

A) badal naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan to'langanda sug'urta badali sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab;

B) badal sug'urta vakiliga naqd pul bilan to'langanda badal to'langan kunning ertasidan boshlab hisobga tushgandan keyin.

Sug'urta badali sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan keyin sug'urtalanuvchiga 5 kun ichida sug'urta polisi beriladi. Sug'urta polisida barcha oila-a'zolarining ismi shariflari ko'rsatiladi. Sug'urta muddati davomida oilada farzand dunyoga kelgan vaqtda, u oilaning boshqa a'zolari singari sug'urtalangan hisoblanadi. Yuridik shaxslar o'z mablag'lari hisobidan sug'urta shartnomalarini tuzishlari mumkin.

Mulkiy va shaxsiy sug'urta shartnomalari har ikkala tomonning kelishuviga asosan tuziladn. Masalan: mulkiy sug'urta shartnomalar bilan biron bir korxonada, tashkilot, muassasa rahbarlari va sug'urta kompaniyasi rahbari bilan birga tuzadilar. Shartnomada ko'rsatilgan talablarni har ikkala tomon rahbarlari bajarilishi uchun javobgar hisoblanadilar. Shaxsiy sug'urta shartnomalari biron bir shaxsning o'z mulkiga binoan tuziladi. Bunda fuqarolar o'zlarining kvartiralarini, dala hovlilarni, erlarini, biron bir buyumlarini sug'urta qildirishlari mumkin. Bunda ham fuqaro va sug'urta kompaniyasi boshlig'i o'rtasida shartnoma kelishilgan holda tuziladi. Shartnomada ko'rsatilgan talablar har ikkala tomondan bajarilishi shart. Shartnoma sug'urtalanuvchiga ajratilgan yer va uchastkalardaga hamma imoratlarni yoki ulardan ayrimlarni sug'urtalash, shuningdek, ana shu imoratlar sug'urtalanuvchiga tegishli bo'lgan qismini sug'urtalash uchun tuzilishi mumkin. Imoratlar, kvartiralar va xususiy lashtirilgan uy-joylar ixtiyoriy

sug'urtasi bo'yicha eng kam sug'urta puli amalda bo'lgan eng kam ish haqidan 20 barobari miqdorida belgilanadi. Qishloqdagi imoratlar, kvartiralar hamda xususiylashtirilgan turar-joylar uchun imoratlarni ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan tarif stavkalari «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urtalanuvchi imoratlarga bo'lgan mulkdorlik huquqini yo'qotganda imoratlarni ixtiyoriy sug'urtalash shartnomasi amal qilishdan to'xtaydi va sug'urta to'lovlari unga sug'urta muddati tugagunga qadar qolgan har bir to'liq oy uchun 1/12 yillik to'lov hisobida qaytariladi, imoratlar belgilangan tartibda boshqa shaxsning mulkiga qo'yadigan hollar bundan mustasnodir. Bunday hollarda imoratlar shartnomada ko'rsatilgan muddatning oxirigacha sug'urtalangan bo'lib hisoblanadi.

9.2. Sug'urta shartnomasi to'lovlari

Sug'urta shartnomasi sug'urta tizimini qonuniy tarzda rivojini ta'minlovchi sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchini o'zaro huquq, burch, mas'uliy javobgarliklarini o'zida aks ettirgan yuridik hujjat bo'lib, qonun talabiga asosan shartnoma yozma ravishda tuziladi va davlat tilida bitilib tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida rasmiylashtiriladi. Sug'urta shartnomasi huquqiy tomondan fuqarolik huquqiy shartnoma bo'lib, sug'urtachi sug'urtalanuvchi va shartnomada katnashadigan tomonlar uchun ma'lum bir maqsad va vazifalarni bajarish yoki shu asosida ikki tomon va shartnoma ishtirokchilarining iqtisodiy manfaat kurinishlarini o'zida aks ettiruvchi hujjat hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi fuqarolik huquqiy hujjat bo'lganligi uchun ikki tomon bir-biriga murojaat qilib o'zlarining huquqlarini bilish va shu shartnomada belgilab qo'yilgan shartlar asosida bir-biri bilan munosabat olib borishga haqli hisoblanadi.

Fuqarolik huquqiy tuzilgan shartnomalar davlat tilida rasmiylashtirilib imzo va muxrlar bilan tasdiqlanib notariusda registratsiya qilinadi va undan keyin kuchga kiradi. Ayrim hollarda

tomonlar imzolagan shartnomalari bilan bir nusxada almashib, o'zlarida saqlaydilar va bu bilan o'zlarini qonuniy ravishda himoya qilishvositasi sifatida foydalanadilar.

Jahon sug'urta amaliyotida sug'urta shartnomasi o'z navbatida imzolanib rasmiylashtirilgandan keyin sug'urta polisi bilan sug'urtalanuvchi tomoniga beriladi. Sug'urtalanuvchi tomon bu shartnoma orqali sug'urta kompaniyasidan o'ziga tegishli bo'lgan xizmatlarni talab qilish huquqini qo'lga kiritadi. Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchi faqat sug'urta shartnomasiga va sug'urta polisiga suya'nib o'zining mulkiy huquqlarini himoya va talab qila olishi mumkin. Qonunda va jahon sug'urta amaliyotida hamma davlatlarda sug'urta shartnomasi yozma ravishda tuzilishi shart qilib qo'yilgan. Buning sababi sug'urtalanuvchini himoyalaydigan hujjat, bu shartnomadir. Bu yerda shuni aytish kerakki, xali O'zbekistonda davlat majburiy sug'urtasi mavjud bo'lib, qonun va boshqa normativ hujjatlar asosida amalga oshirib boriladi va bu yo'nalishda sug'urta shartnomalarini o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Majburiy davlat sug'urtasida shartnoma orqali isbotlash yoki tekshirish talab qilinmaydi, balki hukumatni qarori davlatni chiqargan qonun va qoidalari asos bo'ladi. Shartnoma tomonlardan qo'yilgan shartlar bo'yicha kelishilgandan so'ng tuziladi. Bunda qonun bo'yicha belgilangan yoki sug'urtaning tegishli turi uchun zarur bo'lgan shartnoma predmeti ahamiyat kasb etadi. Masalan shaxsiy sug'urta shartnomalarida quyidagi shartlar ko'rsatilgan bo'ladi:

1. Sug'urtalanuvchi shaxs to'g'risida.
2. Xodisa harakteri (sug'urta hodisasi).
3. Sug'urta summasining miqdori.
4. Shartnomaning amal qilish muddati.

Yuqorida keltirilgan shartlar bo'yicha tomonlar kelishilmagan bo'lsa, bu yerda sug'urta shartnomasi tuzilmagan va imzolanmagan hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta shartnomasida qonun talabiga asosan

sug'urta hodisasining turi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Sug'urta shartnomasi belgilangan muddatda yuz bergan quyidagi hodisalarni o'z ichiga oladi:

1. Sug'urta qildirilgan kishining mehnat qobiliyatini doimiy;
2. Sug'urta qildirilgan kishining jaroxatlanishi, o'tkir zaxarlanishi va boshqa baxtsiz hodisalar natijasida yuz bergan o'lim.
3. Sug'urta qildirilgan kishining umumiy mehnat qobiliyatini yo'qotsa, sug'urtalovchining javobgarligi 7-kundan boshlanadi.

Shartnomalarni tuzishda quyidagi holatlar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- sug'urta qildirilgan kishining qasddan sodir etilgan jinoyati tufayli zarar ko'rsa;
- naf oluvchi qasddan o'zini o'ldirsa;
- sug'urtalanuvchi, ichib, chekib va boshqa o'zini bilmagan holatlarda shikastlansa bo'lar sug'urta hodisasiga kirmaydi va shartnomaga kiritilmaydi.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fukaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoida va tartiblarga nisbatan qarshi shartnomalarni o'z ichiga olsa shartnomaning ana shu shartlari o'mniga qonun hujjatlarining tegishli tartib va qoidalari qo'llaniladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin, belgilangan shakldagi sug'urta polisi quyidagi muddatlarda beriladi:

1. To'lovlar naqd pul bilan to'lanadigan bo'lsa, pul to'lanishi bilan bir vaqtda sug'urta polisi egasiga beriladi.

2. To'lov naqd pulsiz hisob-kitob bilan bo'ladigan bo'lsa, to'lovlar davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'limining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab, kechi bilan 15 kun mobaynida beriladi.

Mabodo sug'urtalanuvchi sug'urta polisini yo'qotib qo'ygan taqdirda shartnoma tuzgan davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining bo'limiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qilsa, sug'urtachi yo'qolgan sug'urta polisini ikkinchi nusxasini berishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi naqd pul bilan to'lanadigan sug'urta to'lovlarini shartnoma tuzish bilan bir vaqtda to'laydi. Sug'urta to'lovlarini sug'urtalanuvchining ish joyidagi hisob-kitob bo'limi orqali pul to'lash yo'li bilan to'lash uning o'z ish haqidan davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'limining hisob-kitob raqamiga sug'urta to'lovlarini o'tkazish haqida belgilangan shaklda yozgan topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi. Sug'urtalanuvchi bunday topshiriqnomani davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'limining nazoratchisi (sug'urta vakili) ga topshiriladi. U esa buni tashkilotning hisob-kitob bo'limiga taqdim etadi.

9.3. Shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urtalash

Xorijiy mamlakatlarda shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urtalash masalasi qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Agar tomonlar shartnomani buzsalar buning uchun qonunda ko'rsatilgan va talab etilgan moddalar bo'yicha javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 2-qismining 919-moddasida shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urtalash haqida quyidagilar zikr etilgan:

«Shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfi bu shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf naf oluvchi foydasiga hatto, sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham sug'urtalangan hisoblanadi». O'zbekistonda zarar yetkazganligi uchun javobgarlikni sug'urta qilish bilan bir qatorda shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish

kabi mulkiy sug'urta imkoniyati ham nazarda tutilgan.

Sug'urta shartnomalari zarar yetkazganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish boshqa mulkiy sug'urta shartnomalaridan asosiy farqi ham shundaki, javobgarlikni sug'urta qilish qonunda ko'rsatilmagan asoslar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, bunday sug'urta shartnomasi haqiqiy deb hisoblanmaydi. Odatda tadbirkorning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaraolmay qolishiga uning o'ziga bog'liq bo'lmagan mulkiy muammolar sabab bo'lishi mumkin. Masalan:

- mulkni yo'qotish;
- tadbirkorlik xavfidan kelib chiqadigan moddiy zararlar.

Ma'lumki bunday muammolarning kelib chiqish xavfi shu jumladan tadbirkorlik xavfi ham alohida sug'urta qilinadi. O'z navbatida tadbirkorga shartnomani buzganligi uchun javobgarlik xavfini sug'urta qildirish uchun cheksiz imkoniyatlar berish bu shartnomani bajarish majburiyatini tadbirkordan to'liq olib tashlashni ham anglatadi. O'z navbatida shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urta qilish mamlakat miqyosida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda bu masalalar hayotda uchramoqda. Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan uziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi oshishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darxol xabar qilishi shart.

Mabodo sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli hisoblanishi mumkin.

Umuman sug'urta qonunchiligida har qanday holatlarda talab qilingan qonun-qoidalar bajarilishi va shartnomada ko'rsatilgan har qanday bo'limlarga so'zsiz rioya etish respublika qonunchiligida alohida ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasining

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi 2002 yil aprelda qabul qilingan qonunida ham bu haqida qayd etib o'tilganligi e'tiborga loyiq deb qarash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Qisqacha xulosalar

Sug'urta shartnomalari mulkiy va shaxsiy shartnomalarga bo'linadi. Shaxsiy sug'urta shartnomalari biror shaxsning o'z mulkiga binoan tuziladi. Sug'urta shartnomasi to'lovlari davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'limining nazoratchisi naqd pul bilan to'lanadigan qilib tuziladi. Shartnoma tuzgan shaxsga sug'urta polisi qam qo'shib beriladi. To'lovlar naqd pul bilan to'lansa. Shundan keyin mijozga shartnoma bilan polis birdaniga beriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Shartnoma nima?
2. Shartnoma turlari.
3. Mulkiy shartnoma.
4. Ixtiyoriy shartnoma.
5. Shartnomaning amal qilish muddati.
6. Shartnoma javobgarligi.
7. Shaxsiy sug'urta shartnomasi.
8. Shartnoma majburiyati.
9. Shartnoma shakllari.
10. Shartnomani bekor qilish.

Asosiy adabiyotlar

1. Фуломов С.С., Боев О.И., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. —Бухоро.
2. Шахов В.В. Страхование. —М.: 2004.
3. Журавин С.Г. Краткий курс истории страхования. —М.: 2005.

Veb-sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz

e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz

e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz

e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.

X BOB

QAYTA SUG'URTALASH ASOSLARI

10.1. qayta sug'urtalashning mazmuni va mohiyati

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida qayta sug'urta qilish bo'yicha shunday deyilgan:

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin. Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu bobning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi. Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi. Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi. Qayta sug'urtalash sug'urta faoliyatining alohida tarmog'i hisoblanadi va qayta sug'urtalash sug'urtalovchini shunday moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladiki, agar shunday himoya bo'lmasa sug'urtalovchi ma'lum sug'urta hodisasi yuz berganda

kasod holatiga tushib qolishi mumkin. Masalan, AQShda 11-sentabrdagi terrorchilar xujumi natijasida ko'rilgan zarar 85, 100 mlrd. dollardan oshib ketganligi qayd etildi va buni to'lash uchun sug'urta kompaniyalari boshqa mamlakatlardagi kompaniyalardan yordam so'rashiga majbur bo'ldilar va AQShdagi ayrim xususiy sug'urta kompaniyalari bankrot holatiga tushdi.

Qayta sug'urtalash tarmogining mavjudligi sug'urtachining imkoniyatlarini sug'urta tavakkalchiliklarini qayta sug'urtalash orqali yanada kengaytiradi. Qayta sug'urtalash - iqtisodiy munosobatlarning shunday tizimiki, bu tizim orqali sug'urtachi o'zi qabul qilgan tavakkalchiliklar oldidagi javobgarlikning bir qismini kelishilgan shartlar asosida boshqa sug'urtachiga beradi va natijada balanslashgan sug'urta shartnomalari portfeli hosil bo'ladi, sug'urta operatsiyalarining rentabelligi va moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi.

Ma'lum sug'urta tavakkalchiligini sug'urta shatnomasi orqali qabul qilgan va bu javobgarlikning ma'lum qismini yoki to'liq boshqa sug'urtachiga o'tkazib bergan sug'urtachi qayta sug'urtalanuvchi deb ataladi. Uni qabul qilib oluvchi esa qayta sug'urtalovchi deb ataladi. Javobgarlikni boshqaga o'tkazib berish jarayonini ko'p hollarda qayta sug'urta brokeri amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'grisida» gi qonunda qayta sug'urta brokeriga quyidagicha ta'rif berilgan: «qayta sug'urta brokeri o'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi».

Qayta sug'urtaga qabul qilib olingan javobgarlikning bir qismini qayta sug'urtachi yana uchinchi sug'urtachiga o'tkazishi mumkin. Ilmiy texnika taraqqiyoti davrida moddiy boyliklarning konsentratsiyasi yuz bermoqda, bo'larni dengiz kemalarining yiriklashuvi, gigant zavodlarning barpo etilishi, yirik havu

laynerlarining yaratilishida ko‘rish mumkin. O‘z o‘rnida bu, sug‘urta summalarining kattalashuvi va javobgarlikning ortishiga olib kelmoqda. Masalan, Saudiya Arabistoni podshosining samalyoti 20 mln. dollarga sug‘urtalangan. Albatta buncha mablag‘ni bitta sug‘urta kompaniyasi to‘lay olmaydi. Buni bir nechta sug‘urta kompaniyasi birgalashib sug‘urtalaydi, sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta kompaniyalari shartnomada kelishilgan tartibda o‘z bo‘ynilariga olgan ma‘suviyat bo‘yicha qoplash summasini to‘laydilar.

10.2. Qayta sug‘urtalashning turlari va shakllari

Qayta sug‘urtalash munosabatlarining rivojlanishi bir necha asrlar mobaynida takomillashib keldi va hozirgi kunda qayta sug‘urtalash shakllari ham o‘zgarib, uning formalarini quyidagi kurinishda tilga olish mumkin qayta sug‘urtalash formalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Fakultativ

- Obligator

Qayta sug‘urtalash turlari bo‘yicha:

- Proportsional

- Noproportsional

«Qayta sug‘urta shakllari» tushunchasi shuni anglatadiki, bu sug‘urtachi va qayta sug‘urtachi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning mazmunini harakterlaydi va qayta sug‘urta shartnomasining amal qilishi davomida tomonlarning majburiyatlarini belgilaydi. «Qayta sug‘urta turi» tushunchasi sug‘urtachi bilan qayta sug‘urtachi o‘rtasidagi javobgarliklar hajmini hisoblashning texnik jihatlarini aniqlaydi, javobgarlik ulushini, qayta sug‘urta mukofotini va qayta sug‘urtachi tomonidan to‘lanishi mumkin bo‘lgan sug‘urta qoplamasi hajmini aniqlaydi.

Lekin yuqorida keltirilgan tuzilma to‘liq struktura bo‘la olmas edi, qachonki alternativ qayta sug‘urta deb nomlanuvchi qayta sug‘urtaning yangi formasi bo‘lmaganda, qayta sug‘urta

munosabatlarning zamonaviy tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin: qayta sug'urta tipi:

- Klassik;
- Moliyaviy;
- Fakultativ;
- Obligator;
- Proportsional;
- Noproportsional;
- Kvotali.

Qayta sug'urtada ko'llaniladigan atamalar

- Qayta sug'urta mukofoti - qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qayta sug'urtachiga to'lanadigan sug'urta to'lovi;

- Qayta sug'urta komissiyasi - bu hozirgi zamon qayta sug'urta munosabatlarida qayta sug'urta qiymatini baholash elementi sifatida ko'rinmoqda.

- Qayta sug'urta komissiyasi - qayta sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan ma'lum foizni qayta sug'urta mukofotiga ko'paytirilganiga teng;

- Retrotsessiya - qayta sug'urta shartnomasi bo'lib, bunga ko'ra qayta sug'urtachi o'z javobgarligining bir qismini uchinchi qayta sug'urtachiga beradi.

- Qayta sug'urta limiti - maksimal summa bo'lib, ushbu chegara doirasida qayta sug'urtachi qayta sug'urta qoplamasini to'lab berishi mumkin;

- Qayta sug'urta sig'imi - qayta sug'urtachi yoki sug'urtachining javobgarlikni qabul qilish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini baholash;

- Fakultativ qayta sug'urta - har bir alohida sug'urta tavakkalchiligi bo'yicha sug'urtachi va qayta sug'urtachining o'z ixtiyori bilan qayta sug'urtani amalga oshirishi;

- Obligator qayta sug'urtalash - bu qayta sug'urta turida sug'urtachi barcha aniq tavakkalchiliklarni ma'lum hududda, belgilangan qayta sug'urtachiga o'tkazishi shartidir.

Qayta sug'urta shartnomasini tuzish va uni amalga oshirish shunga mos ravishdagi majburiyatlarni bajarishning yozma shaklini talab qiladi, o'zaro munosabatlarni belgilangan tartib va shakldagi hujjatlar orqali amalga oshirilmasa o'zaro tortishuvlar va shartnomalarni bekor qilish holatlariga olib kelishi mumkin.

Qayta sug'urta shartnomasini tuzishdan oldingi kelishuv SLIP deb nomlanuvchi hujjat orqali amalga oshiriladi. Bu hujjatda sug'urta turi, qayta sug'urta tipi, qayta sug'urta limiti tavakkalchilikning joyi, kutilayotgan sug'urta mukofoti aniqlanadi.

Tomonlar qayta sug'urta shartnomasi shartlari va vaqtini kelishib olganlaridan keyin shartnoma teksti tayyorlanadi va shartnoma imzolanaadi. Zarar to'g'risida xabarnoma, sug'urtachi sug'urta hodisasi yuz berganligi va ma'lum miqdordagi sug'urta qoplamasini to'langanligini, shu munosabat bilan ushbu qoplamaning qayta sug'urtachiga tegishli qismini to'lash kerakligi to'g'risida qayta sug'urtachini ogohlantirish zarar to'grisidagi xabarnoma orqali amalga oshiriladi.

Qayta sug'urtachi har bir sug'urtachi bilan joriy schyot hisoblarini olib boradi.

10.3. Qayta sug'urtaning huquqiy tomonlari

Ma'lumki xorijiy mamlakatlarda qayta sug'urtani turlicha tariflaydilar. Masalan, Germaniyada sug'urtachini sug'urtalashni qayta sug'urta deb tushunadilar. Finlyandiyada birgalikdagi sug'urtani qayta sug'urta deb qaraydilar.

O'zbekistonda qabul qilingan «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi qonunda qayta sug'urta brokeri haqidagi maxsus modda kiritilgan. Bundan tashqari sug'urtachilarni litsenziyalash bo'yicha qayta sug'urta faoliyati bilan sug'urtalanuvchilar bilan alohida shartlar belgilangan. Qayta sug'urtalashga klassik tarzda tarif berish 1807-yilda Angliya sudi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda quyidagicha tarif berilgan: qayta sug'urta - yangi alohida sug'urta va alohida shartnoma bo'lib, lekin oldin tuzilgan sug'urta shartnomasi

bilan bog'liq, oldin tuzilgan sug'urta shartnomasidagi sug'urtachi javobgarliklarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

Rossiya federatsiyasidagi sug'urta haqidagi qonunlarda va fuqarolik kodeksida qayta sug'urta to'g'risida alohida moddalar mavjud. Qayta sug'urtachi o'rtasida tuzilgan shartnoma ular bajaradigan vazifalardan kelib chiqqan holda aktiv va passiv qayta sug'urtaga bo'linadi. Aktiv qayta sug'urtalash tavakkalchilikni boshqaga o'tkazilganda tuziladi, passiv qayta sug'urtalash tavakkalchilikni qabul qilganda tuziladi. Sug'urta amaliyotida o'z tavakkalchiliklarini boshqaga beruvchi sug'urtachi aktiv qayta sug'urtani amalga oshiruvchi hisoblanadi. Tavakkalchilikni qabul qiliuvchi sug'urta tashkiloti passiv qayta sug'urtani amalga oshiruvchi hisoblanadi. Tavakkalchilikni boshqaga berish javobgarlikni berishdir. Amaliyotda ko'p hollarda aktiv va passiv qayta sug'urtani bir sug'urta tashkiloti amalga oshiradi. Natijada bir sug'urtachi uch funksiya'ni bajaradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sug'urtalash operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasining xorijiy mamlakatlarning yyetakchi sug'urta kompaniyalari, eksport-kredit agentliklari bilan bevosita hamkorligi rivojlanib bormoqda. «O'zbekinvest» kompaniyasi milliy qayta sug'urtalash bozoridagi xizmatlarni rivojlantirish tashabbuskori bo'lib, O'zbekiston sug'urtachilari tomonidan qayta sug'urtalash, bozorini to'la ishga solinishiga imkoniyat yaratib kelmoqda.

Qisqacha xulosalar

Qayta sug'urtalash sug'urta tarmog'ini alohida tarmog'i hisoblanadi, qayta sug'urtalash sug'urtalovchini moliyaviy yo'qotishlardan, bankrot bo'lmaslikdan himoyalaydi.

Qayta sug'urtalash orqali sug'urtachi o'zi qabul qilgan tavakkalchiliklar oldidagi javobgarlikning bir qismini kelishilgan holda ma'lum shartlar bilan boshqa sug'urtachiga beradi.

Qayta sug'urtalash formalari fakultativ, obligator turlari esa proportsional, noproportsional qayta sug'urta tipi klassik, moliyaviy, kichik turlari: kvotali, zarar ekstsedenti va xokozalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qayta sug'urtalash nima?
2. Qayta sug'urtalash mazmuni.
3. Qayta sug'urtalash turlari.
4. Aktiv qayta sug'urtalash.
5. Passiv qayta sug'urtalash.
6. Qayta sug'urtalash huquqi.
7. Fakultativ qayta sug'urtalash.
8. Obligator qayta sug'urtalash.
9. Klassik qayta sug'urta tipi.
10. Proportsional qayta sug'urtalash.

Asosiy adabiyotlar

1. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодиётни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш. – Т.

2. Фуломов С.С., Боев О.Х., Мирзоев С.Ф. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. – Бухоро: 2005.

3. Фуломов С.С., Боев Х.И., Мирзоев С.Ф. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. – Бухоро: 2004.

4. Мирзоев С.Ф., Боев Х.И. Ўзбекистонда шахсий суғуртанинг ҳозирги ҳолати. – Бухоро: 2004.

5. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Мулкий ва шахсий суғурта. – Т.: 2003.

6. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Суғурта бозори. – Бухоро: 2003.

Veb - sayt va elektron pochta

1. www.kafolatdask.uz

e – mail: kafolat@mail.tps.uz - «Kafolat» Davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi.

2. www.agros.uz

e – mail: info@agros.uz - «Uzagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.

3. www.unik.gov.uz

e - mail: overseas@unik.gov.uz - «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.

XI BOB

SUG'URTA SHAKLLARI

11.1 Sug'urta shakllari tushunchasi

Ma'lumki sug'urta bu baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar va qonunda ko'rsatilgan boshqa holatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash, sug'urta jamgarmasini tuzish, undan foydalanish vaqtida kelib chiqadigan tashkiliy, mulkiy va shaxsiy, nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidan iborat bo'lgan fuqarolik huquqiy institutdir. Sug'urta ko'p tarmoqli hisoblangan tashkiliy jihatdan bir necha o'nlab korxonalarining ishtiroki va millionlab sug'urtalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatadi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, faqat davlat hissadorlik sug'urtasi yo'li bilan sug'urtaning 35 xili mavjud bo'lib, ularning tariflari mavjuddir.

O'z navbatida sug'urta ishini boshqarish bir-biriga o'xshash xillarini guruhlash, birlashtirish tarmoqlarga hamda bo'limlarga ajratishni hayotning o'zi taqozo qiladi. Demak sug'urta turi o'zining xususiyatiga ko'ra quyidagi yo'nalishlarda guruhlashtirilishi mumkin:

- Hududlar bo'yicha (mamlakatning ichki hududi va tashqi sug'urta munosabatlari e'tiborga olinadi);

- Davlat sug'urta tashkilotlari, qo'shma va xususiy sug'urta tashkilotlari bo'yicha;

- Tarmoqlar bo'yicha;

- Xavf-xatar xillari bo'yicha;

- Majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha.

Agar sug'urta tashkilotlarini guruhlaydigan bo'lsak:

- faqat xorijiy mamlakatlar investorlari va tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat qiluvchi sug'urta tashkilotlari (Uzbekinvest, Intertrans);

- qo'shma sug'urta tashkilotlari, bo'larga Uzbeksug'urta-XaudenLixu qo'shma korxonasini keltirish mumkin;

- Mamlakat doirasida yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat qiluvchi xususiy tashkilotlar;

- davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari bo'yicha.

Agar tarmoqlar bo'yicha sug'urtalashni amalga oshiradigan bo'lsak, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi;

- mulk sug'urtasi;

- shaxsiy sug'urta;

- javobgarlik sug'urtasi;

- tadbirkorlik va tavakkalchilik xavf-xatari sug'urtasi.

Sug'urta amaliyotida mulk sug'urtasiga juda katta e'tibor beriladi.

Agar qishloq xo'jaligi misolida ko'radigan bo'lsak, qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulki sug'urta qilinadi, fermer xo'jaliklari sug'urta qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'shma korxonalar, tadbirkorlar mol-mulki ham keng miqyosda sug'urta qilinmoqda. Sug'urta tizimida shaxsiy sug'urtaning ham o'z o'rnini bo'lib, u ikki tarmoqdan:

1. Hayot sug'urtasi;

2. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Agar hayot sug'urtasining tarkibini ko'radigan bo'lsak, uning tarkibiga hayotni aralash sug'urtalash, bolalar sug'urtasi va h.k.

O'z navbatida baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urtalash yo'lovchilarni, maktab o'quvchilarini, ishchi va xizmatchilarni korxonalar hisobidan sug'urta qilish tushuniladi.

Endi javobgarlik sug'urtasini ko'radigan bo'lsak, bu sug'urta turida transport vositalaridan foydalanishda 3-shaxsga yetkazilgan zarar qoplanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik rivojlanib boradi. Sug'urta tizimida tadbirkorlik xavf-xatarlaridan sug'urtalash rivojlanib boradi. Jamiyatda tadbirkorlarga va ularning faoliyatiga bevosita va bilvosita zararlar yetkazilishi mumkin. Masalan korxonaga, savdo tashkilotiga, yangi texnikadan foydalanish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq xavf-xatarlar tufayli yuz bergan kamomadlar e'tiborga olinishi zaruriyat bo'ladi.

11.2. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ko'rsatilganki, majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzilishi shart.

Qonunda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish hollari (davlat majburiy sug'urtasi) nazarda tutilishi mumkin.

Majburiy sug'urtada to'lovlar muddati o'tib ketgan hollarda ular majburiy ravishda undirib olinadi va bunda sug'urta munosabati uzilmaydi. Majburiy sug'urta qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetishi ehtimoli nazarda tutib:

- boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi;

- sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi;

- qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda, xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

Ixtiyoriy sug'urtada esa sug'urta haqi tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi. Ixtiyoriy sug'urtada sug'urta badallari to'lov muddati utib ketishi sug'urta munosabatlarining to'xtashiga sabab bo'ladi (aniq imtiyozlar tufayli sug'urta munosabatlari belgilangan muddatgacha davom etadigan hollar bundan mustasno).

O'z navbatida ixtiyoriy sug'urta shakli quyidagi tamoyillar asosida ko'riladi. Shunisi muhimki ixtiyoriy sug'urta qonun asosida

tomonlarning o'zaro kelishuvlari bilan konkret shartlar sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan qoidalar orqali tartibga solib turiladi. Ixtiyoriy sug'urtada sug'urtalanuvchining xohishi sug'urta qoidalariga zid kelmasa sug'urtalanuvchini iltimosi bilan sug'urta shartnomasi tuziladi. Ixtiyoriy sug'urtada hamma fuqarolar ham ishtirok etavermaydi, chunki u sug'urta muddati bilan chegaralanadi. Bu yerda sug'urta qoplamasi sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtdagina to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtada tomonlarning kelishuviga binoan sug'urta to'lovlarining miqdori belgilab olinadi.

O'z navbatida ixtiyoriy sug'urta majburiy sug'urtadan farq qiladi. Ixtiyoriy sug'urtada tanlab olish mavjud bo'ladi. Shartnomada ko'rsatilgan muddat bilan sug'urta davri chegaralanadi. Sug'urta ta'minoti, mulk bahosi sug'urtalanuvchining xohishiga qarab oldindan belgilanadi.

Majburiy sug'urta Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan amalga oshiriladi. O'zbekistonda majburiy sug'urtaning «O'zbekinvest» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi amalga oshirib kelmoqda.

11.3. Davlat aksionerlik sug'urtasi va xususiy sug'urta

Xorijiy mamlakatlarning sug'urta tizimida sug'urta kompaniyalari turli mulk shakllarida tashkil topgan bo'lib, ularda davlat sug'urta kompaniyalari, xususiy sug'urta kompaniyalari va hamkorlikdagi sug'urta kompaniyalari mavjuddir.

AQShda sug'urta kompaniyalarining juda ko'p qismi xususiy sug'urta kompaniyasi shaklida tashkil etilgan bo'lib, bu mamlakatda sug'urta biznesi nixoyatda rivojlangan. Angliyada sug'urta kompaniyalari orasida eng yirik xususiy mulk asosida tashkil topgan «Lloyd» sug'urta korporatsiyasi dunyoga mashxurdir. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida davlatning tashabbusi bilan mamlakatimizda qator davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari tashkil etildi.

Bulardan biri «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va u qishloq xo'jaligi sohasida tovar

ishlab chiqaruvchilarning mulk va mahsulotlarini sug'urtalash, qishloq xujaligi mahsulotlarini yyetishtirish uchun berilgan avans mablag'larini qaytarishni sug'urtalash va boshqa sug'urta turlarini amalga oshirmoqda.

Davlatimizning tashabbusi bilan O'zbekistonlik tadbirkorlarni eksport va import operatsiyalari bo'yicha faoliyatlarini kafolatlash uchun «Uzbekinvest» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va bu kompaniya O'zbekistonlik eksport qiluvchilarni sug'urtalash yo'li bilan himoyalash, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan aloqa qiluvchi o'zbek investorlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini sug'urtalash bilan shug'ullanmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta kompaniyalarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27-noyabr 2002 yil 413-sonli «sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorida ko'rsatib utilganki:

- hayotni sug'urta qilish tarmogida ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun - 250 ming AQSh dollariga teng miqdordagi summada;

- umumiy sug'urta tarmogiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun - 150 ming AQSh dollariga teng miqdordagi summada;

- qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa)- 2 mln. AQSh dollariga teng summada belgilanadi;

- majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 500 ming AQSh dollariga teng miqdordagi summada belgilanib qo'yildi.

Hozirgi kunda respublikamizda «Kafolat» sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatib, u davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bo'lib, shahar hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta xizmatini ko'rsatib kelmoqda.

Bundan tashqari respublikamizda «Madad» sug'urta agentligi

ham tashkil etilgan bo‘lib, asosiy vazifasi xususiy va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish bilan aloqador operatsiyalarni sug‘urtalab kelmoqda.

Respublikamizda O‘zbekiston hukumati bilan AQSh hukumatining o‘zaro kelishuviga binoan «UzAIG» hamkorlikdagi sug‘urta kompaniyasi tashkil etilib, hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy sug‘urta bozori tashkil etilgan bo‘lib, bu bozorda turli mulk shaklidagi sug‘urta kompaniyalari o‘zaro raqobat asosida faoliyat olib bormoqdalar.

Milliy sug‘urta bozorida davlat sug‘urta monopolizmiga qarshi hamma chora-tadbirlarni qo‘llash bilan sug‘urta kompaniyalarini moddiy texnika bazasini rivojlantirishga alohida e‘tibor berib kelayotganligi hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarda o‘z aksini topganligi bilan diqqatga molikdir.

Ayni paytda milliy sug‘urta bozorida 2005 yilni 6 oylik natijalari bo‘yicha jami sug‘urta mukofotlari 21,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Jami nizom kapitali bo‘yicha shu davrda 12,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, jami sug‘urta majburiyatlari bo‘yicha 18 trln. so‘mni, shu davr ichida jami sug‘urta qoplamalari 1,19 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Sug‘urta kompaniyalari ichida «Uzbekinvest» sug‘urta mukofotlari bo‘yicha 3,023 mlrd. so‘mni, «Uzagrosug‘urta» 4,552 mlrd. so‘mni, «UVT INSURANC» sug‘urta kompaniyasi 8,586 mlrd so‘mlik sug‘urta mukofotlariga ega bo‘ldi.

«UVT INSURANC» sug‘urta kompaniyasi O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida yyetakchi kompaniya bo‘lib ushbu kompaniya hisobiga respublikada yigiladigan jami sug‘urta mukofotlarining 39,4 foizi to‘g‘ri kelmoqda.

Qisqacha xulosalar

Sug‘urtaning shakllari turli tuman bo‘lib, majburiy, ixtiyoriy sug‘urta juda ommalashib ketgan. Majburiy sug‘urtada sug‘urta

